


©, qayd qilingan



TEKNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH

!abova



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

G.J. Rajabova

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH

*fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha o'quv
qo'llanma 5321600 - "Yengil sanoat texnologiyalari va
jihozlari" yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi bakalavrlar uchun
mo'ljallangan*

Buxoro – 2021
«Durdona» nashriyoti

37.23

677:658.512

R 17

Rajabova G.J.

Texnologik Jarayonlarni loyihalash [Matn] : o'quv qo'llanma /
Rajabova G.J.– Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy «Durdona nashriyoti», -
2021. – 299 b.

UO'K 677:658.512

BBK 37.23

TAORIZCHILAR:

- X. Q. Raxmonov – «Yengil sanoat mashinalari va jihozlari» kafedrası professori, t.f.d.
- M. Qodirov – «Bukhara Brilliant Silk» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi O'zbek-Xitoy qo'shma korxonasi rahbari

Mazkur o'quv qo'llanma Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti ilmiy kengashning 2019-yil 29-noyabr 3-sonli buyrug'iga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9943-7368-9-4

© G.J. Rajabova

86030

Annotatsiya

"Texnologik jarayonlarni loyihalash" kursi mutaxassislar tayyorlash profilini aniqlaydigan asosiy maxsus fanlardan biridir.

Ushbu fanni o'rganishning o'ziga xos xususiyati shundaki, har xil turdagi jarayonlarning dizayni, tanlanishi va tavsiflanishi bilan bog'liq barcha masalalar sanoat tikuvchilik korxonalarida va individual buyurtmalar asosida ishlaydigan korxonalarda ko'rib chiqiladi.

"Texnologik jarayonlarni loyihalash" fanidan tuzilgan mazkur o'quv qo'llanma o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, ushbu fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari tikuv ustaxonasining texnologik jarayonini loyihalash bosqichlarini taqlid qilish bilan bog'liq. Bu talabalarga haqiqiy vaziyatni tasavvur qilish va o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshirishga imkon beradi.

"Texnologik jarayonlarni loyihalash" fani bo'yicha laboratoriya ishlarini bajarishdan asosiy maqsadga erishish uchun talabalar tikuv korxonasi texnologik jarayonlarini loyihalashning asosiy bosqichlarida osongina va erkin yurishlari; berilgan ishlab chiqarish sharoitlariga mos ob'ektni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi; jarayonni oldindan hisoblash va texnologik sxemalarni tuzish malakasiga ega bo'lish; tanlangan jarayon turi uchun barcha ko'rsatkichlarni to'g'ri hisoblash; tikuvchilik ustaxonasida jarayonlarni rejalashtirishni amalga oshirishdir.

"Texnologik jarayonlarni loyihalash" laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda talaba berilgan mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar bilan tanishishi, ma'ruza kursining tegishli bo'limlarini o'rganishi lozim.

"Texnologik jarayonlarni loyihalash" fanidan o'quv qo'llanma 5321600 – "Yengil sanoat texnologiyalari va jihozlari" yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi bakalavrlar uchun mo'ljallangan. Undan ishlab chiqarishda ishchilarga kasb o'rgatishda ham foydalanilsa bo'ladi.

Аннотация

Курс «Проектирование технологических процессов» является одним из основных специальных дисциплин, определяющих профиль подготовки специалистов.

Особенность изучения данной дисциплины заключается в том, что все вопросы, связанные с проектированием, выбором и характеристикой различных типов процессов, рассматриваются как применительно к промышленным швейным предприятиям, так и к предприятиям, работающим по индивидуальным заказам. Следует отметить, что роль последних в настоящее время значительно возрастает.

В основу лабораторного практикума по дисциплине «Проектирование технологических процессов» положена программа курса.

Учебное пособие по данной дисциплине связан с имитацией этапов проектирования технологического процесса швейного цеха. Это позволит студентам наглядно представить реальную ситуацию и повысить их интерес к учебному процессу.

При выполнении работ по данной дисциплине должна быть достигнута основная цель – студенты должны легко и свободно ориентироваться в основных этапах проектирования технологических процессов швейного цеха; уметь правильно выбрать объект для заданных условий производства; владеть методикой выполнения предварительного расчета процесса и составления технологические схемы процесса; правильно рассчитать все показатели для выбранного типа процесса; выполнять планировку процессов швейного цеха.

При подготовке к выполнению работ по предмету «Проектирование технологических процессов» студент должен ознакомиться с литературой, рекомендованной по данной теме, изучить соответствующие разделы лекционного курса.

Учебное пособие «Проектирование технологических процессов» предназначен для бакалавров по направлению 5321600 – «Технологии и оборудования лёгкой промышленности». Он также может быть использован для обучения рабочих в процессе производства.

Annotation

The course "Designing of technological processes" is one of the main special disciplines that determine the profile of specialist training.

A feature of studying this discipline is that all issues related to the design, selection and characterization of various types of processes are considered both in relation to industrial sewing enterprises and to enterprises working on individual orders. It should be noted that the role of the latter is currently increasing significantly.

The basis of the laboratory workshop in the discipline "Designing of technological processes" is the course program.

The manual in this discipline is associated with the simulation of the design stages of the technological process of the sewing workshop. This will allow students to visualize the real situation and increase their interest in the educational process.

When performing work in this discipline, the main goal should be achieved - students should be able to easily and freely navigate in the main stages of designing technological processes of the sewing workshop; be able to choose the right object for the given production conditions; own the methodology for performing preliminary calculation of the process and drawing up technological schemes of the process; correctly calculate all indicators for the selected type of process; to carry out the rejaning of the processes of the sewing workshop.

In preparation for the work on the subject "Designing of technological processes", the student should familiarize himself with the literature recommended on this topic, study the relevant sections of the lecture course.

The manual "Designing of technological processes" is intended for bachelors in the direction 5321600 - "Technologies and equipment of light industry". It can also be used to train workers in the manufacturing process.

KIRISH

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy- texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq.

Sh. Mirziyoev

Tikuvchilik sanoati oldida qo'yilgan asosiy vazifalaridan biri - tovarlar assortimentini yangilash, moda yo'nalishiga katta e'tibor berish, sifatli va xalq ehtiyojini qondiradigan kiyim ishlab chiqarishdan iboratdir.

Bugungi kunda tikuvchilik sanoatida kiyimni modellash, uni tikish va tikuv texnologik jarayonini loyihalashda qo'l mehnatining salmog'ini kamaytirib, mehnat unumdorligini oshirish sohadagi dolzarb masala sanaladi. Buning uchun Germaniya, Vengriya, Chexoslovakiya davlatlaridan o'zaro hamkorlik o'rnatib yangi mashinalardan, ko'p operatsiya bajaradigan avtomat va yarim avtomatlardan foydalanib yuksak samarali jarayonlarni o'zlashtirishimiz lozim. Ana shu vazifalar hozirda bosqichma-bosqich amalda oshirilmoqda.

Shu bilan bir gatorda, ish o'rinlarini robotlashtirish, kompleks mexanizatsiyalashgan kiyim tikish liniyalarini qo'llash va namlab-isitib ishlov berishni mikroprotssessorlar yordamida boshqarishni ta'minlash kerak.

Kiyim tikish texnologik jarayonini takomillashtirishga kiyim tikishning parallel usulini keng ishlatish, ko'p operatsiyali mashinalarni qo'llash, yangi materiallarni ishlatish, ishlab chiqarishning eng zamonaviy formasi - oqim usulidan foydalanish lozim.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun tikuvchilik korxonalarini malakali kadrlar bilan uzluksiz ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirish uchun ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarini kengaytirish, turli tarmoqlarning bir me'yorda rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarishni boshqarishning yangi shakllarini qo'llash va shu yo'l bilan korxonalarni samaradorligini oshirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishlar bo'yicha harakatlar strategiyasi"da keng iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarayotgan, qayta tayyorlash, saqlash, sotish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli korxonalarni rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek Prezidentimizning 2016 yil 15 sentyabrdagi PQ-2592 sonli "2016-2020 yillarda charm-poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi" qarorida hamda 2017 yil mart oyida Buxoro va Navoiy viloyatlarida tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlis bayonida (№55) viloyatlarda xom-ashyoni qayta ishlash va yuqori sifatli mahsulotlarini ishlab chisarishga alohida e'tibor qaratilgan.

"Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"ning sifat bosqichining ijrosini ta'minlash maqsadida egallangan nazariy ma'lumotlarni amaliy tatbig'i uchun talabalarga laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish tartibini ishlab chiqish va uni o'quv jarayoniga joriy etish kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Laboratoriya ishlari talabalarning "Texnologik jarayonlarni loyihalash" fani bo'yicha nazariy darslarda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, shu yo'nalishda ta'lim olgan mutaxassislar

ishlab chiqarishda duch kelishi mumkin bo'lgan texnik masalalarni yechish uslublari bilan tanishtiradi.

Har bir laboratoriya ishida berilgan ishni bajarish uchun kerakli nazariy bilimlar ifodalangan, ularning yechimi texnologiyada amaliy ahamiyatga egaligi ko'rsatilgan va umumiy metodik ko'rsatmalar berilgan. Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar, namunalar, jihozlar va uskunalar ro'yxati keltirilgan.

Laboratoriya ishlari bir nechta topshiriqdan tuzilgan, ular har bir laboratoriya ishi mavzusi bo'yicha mustaqil ishlarni o'zida mujassamlashtirgan. Shuning uchun, laboratoriyadagi jihozlardan oqilona foydalanish maqsadida bajaruvchilarga bitta ishga oid turli topshiriqlarni berish mumkin.

Ishni bajarishdan oldin talabalar ishga oid ma'ruzalar matni, darslik yoki tavsiya etilgan adabiyotlardan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tayyorlanadi.

I Kiyim modellarini tanlash va asoslash

Mavzu 1. 1. Zamonaviy moda yo'nalishi asosida kiyim modelini tanlab eskizini chizish

Ishdan maqsad:

Zamonaviy moda yo'nalishi asosida kiyim modelini tanlash.

Ishni bajarish tartibi

1. Zamonaviy moda yo'nalishi asosida kiyim modelini tanlash.

2. Model eskizini chizish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Kiyim haqida ma'lumot.

2. Kiyimlarning klassifikatsiyasi, silueti.

3. Kiyimga qo'yilgan talablar.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4

2. Qalam-oddiy qora


3. O'chirg'ich

4. Akvarel bo'yoq

Adabiyot: [12, 122-141-bb.; 17, 6-7-bb.; 18; 19; 20; 21].

Uslubiy qo'llanma

Berilgan assortiment bo'yicha zamonaviy moda yo'nalishi tahlil etiladi va perspektiv moda yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar beriladi.



1. 1. 1 – rasm. Texnologik oqimning asosiy bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi Modalar Uyi kolleksiyalari, respublikamiz hamda chet el moda jurnallari va kataloglarining zamonaviy sanoat kolleksiyalarini tahlili asosida va tanlangan assortimentga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda, o'xshash modellar seriyasi (3 dona) tanlanadi. Seriyadagi barcha tanlangan modellar funktsional mo'ljallanishi bo'yicha o'xshash bo'lishi kerak.

Model eskizlari (3 dona) akvarel bo'yoqlar yoki tush bilan rangli qilib bajariladi va tushuntirish yozuvida A4 formatda (210 x 297 mm), old tomondan ko'rinishi M 1:5 va orqa tomondan ko'rinishi M 1:10 keltiriladi. A1 formatda to'rtala model birgalikda chiziladi.

Ishning bajarilishi:

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan kirib kelayotgan bir davrda o'z ta'sirini tobora kengroq ko'rsatib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umum insoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berish lozimligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ta'lim dargohlarida kiyinish madaniyatiga ham katta e'tibor berish talab qilinmoqda.

Laboratoriya ishida– oliy o'quv yurti talaba qizlari formasini (yubka va pidjak) ning yangi modelini loyihalash" mavzusi berilgan.

Zamonaviy oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi (yubka va pidjak) modelini loyihalashda madaniy rivojlanishning hamma progressiv gumanistik tendensiyalarini hisobga olinishi shart.

Buning uchun:

- o'tmish merosini chuqur o'rganish va eng yaxshi odatlar bilan aloqani saqlab qolish;

- zamonaviy yengil sanoatdagi barcha ilg'or, progressiv g'oyalarni faol va analitik o'zlashtirish;

- sanoat taraqqiyotiga ko'maklashuvchi yangi g'oyalarning tez amalga oshirilishi;

- kostyum shakli rivojlanishini oldindan ko'ra olishga ilmiy yondashuv;

- kostyumda me'morchilik, san'at, ilmiy-texnika taraqqiyoti sohasidagi yangi yutuqlari bilan bog'liqlikning aks ettirilishi;

- individual kishi timsoli kostyumini shakllantirish;

- kostyumning ansambl yechimi;

- kostyum shaklining vazifasiga muvofiqligini ko'zda tutish lozim.

Biz kiyim tikishdan oldin avval kiyimning modellab olishimiz kerak. «Moda» so'zi shaklni o'zgartirish demakdir. Moda yaratish uchun asosiy andaza chizmasiga har xil chiziqlar kiritiladi. «Fason» deganda kiyimning rasmini chizish tushiniladi.

Har ikkala guruh o'z nomlariga mos fason yaratadi va izohlab beradi.

Har bir odam yaxshi kiyinishi va kiygan ko'ylagi o'ziga yarashib turishi kerak. Did bilan kiyinish uchun har kim o'z gavdasining hamma jihatlarini bilishi, ko'ylak fasonini tanlashda o'zidagi kamchilikni berkitib, afzallarini ko'rsatadigan fasonni topishi lozim. Masalan; semiz figuralarga to'g'ri bichimli kiyimlar yarashadi va sipo turadi. Buyum keng bo'lmasligi va uning bezaklari kam bo'lishi kerak.

Birinchi model eskizi



1. 1. 2 - rasm. Birinchi modelning eskizi.

Ikkinchi model eskizi



1. 1. 3 - rasm. Ikkinchi modelning eskizi.

Uchinchi model eskizi



1. 1. 4 - rasm. Uchinchi modelning eskizi.

Nazorat savollar:

1. Kiyim deb nimaga aytiladi?
2. Zamonaviy kiyimlar qanday klassifikatsiyalanadi?
3. Kiyimga qanday talablar qo'yiladi?

Mavzu 1. 2. Tanlangan modelning tashqi ko'rinishiga tasnif yozish

Ishdan maqsad:

Zamonaviy moda yo'nalishi asosida tanlangan modelning tashqi ko'rinishiga tasnif yozish.

Ishni bajarish tartibi

1. Tanlangan modelning tashqi ko'rinishiga tasnif yozish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Siluet shakllari

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Qalam-oddiy qora
3. O'chirg'ich

Adabiyot: [12, 122-141-bb.; 17, 6-7-bb.; 18; 19; 20; 21].

Uslubiy qo'llanma

Berilgan assortiment bo'yicha zamonaviy moda yo'nalishi tahlil etiladi va perspektiv moda yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Modalar Uyi kolleksiyalari, respublikamiz hamda chet el moda jurnallari va kataloglarining zamonaviy sanoat kolleksiyalari tahlili asosida va tanlangan assortimentga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda, o'xshash modellar seriyasi (3 dona) tanlanadi. Seriyadagi barcha tanlangan modellar funktsional mo'ljallanishi bo'yicha o'xshash bo'lishi kerak.

Model eskizlari (3 dona) akvarel bo'yoqlar yoki tush bilan rangli qilib bajariladi va tushuntirish yozuvida A 4 formatda (210x297 mm), old tomondan ko'rinishi M 1:5 va orqa tomondan ko'rinishi M 1:10 keltiriladi. A1 formatda to'rtala model birgalikda chiziladi.


Zamonaviy moda yo'nalishi asosida tanlangan har bir model uchun uning tashqi ko'rinishining ta'rifi beriladi (agar modellar bir-biriga o'xshash bo'lsa, asosiy modelning ta'rifi beriladi, qolgan modellarning esa asosiy modeldan farqli belgilari ta'riflanadi).

Model tashqi ko'rinishining ta'rifini quyidagi sxema bo'yicha olib borish tavsiya etiladi:

- modelning nomi (turi), mo'ljallanishi, materiali;
- shakli (silueti), bichimi, kiyimning umumiy ko'rinishi;
- taqilma turi;
- old bo'lakning konstruksiyasi ta'rifi;
- orqa bo'lakning konstruksiyasi ta'rifi;
- yenglarning konstruksiyasi ta'rifi;
- yoqaning konstruksiyasi ta'rifi;
- astarning ta'rifi;
- bort, latskanlar, yoqa, cho'ntaklar va hokazolar ta'rifi;
- tavsiya etiladigan razmerlar va bo'ylar.

Modali narsalarning butun assortimenti muayyan siluet shakllarda yasaladi, bunda yangi mahsulotlar bu siluet shakllarga kiradi va bizning u yoki bu siluet to'g'risidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

To'rt yetakchi siluetlar ajratiladi (1.3-rasm): to'g'ri (a), trapetsiyasimon (b), yarim yotuvchi (v) va belga yotuvchi (g).



2.1. 1 - rasm. Siluet shakllari:

a – to'g'ri; b – trapetsiyasimon; v – yarim yotuvchi; g – belga yotuvchi

86030

Ishning bajarilishi:

Birinchi modelning tashqi ko'rinishiga tavsif (1. 1. 1 - rasm)

Yarim jun matosidan oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi. Talaba qizlari formasi yubka va pidjakdan iborat.

Kostyum pidjagi klassik uslubda, to'g'ri bichimli.

Kostyum pidjagining old bo'lagida relyef vitochkalari mavjud bo'lib, old bo'lak va old bo'lak yon qismlaridan iborat. Old bo'lak relyef vitochkalari yyelka chokidan pastki qismigacha.

Kostyum pidjagi markaziy taqilmali. Taqilma 2 ta tugma va 2 ta izmada taqiladi.

Kostyum pidjagining old bo'lagi yaxlit bichilgan, relyef vitochkalari mavjud bo'lib, orqa bo'lak va orqa bo'lak yon qismlaridan iborat.

Kostyum pidjagining orqa bo'lagi yaxlit bichilgan, relyef vitochkalari mavjud bo'lib, orqa bo'lak va orqa bo'lak yon qismlaridan iborat.

Kostyum pidjagining yoqasi – o'tkir uchli, pidjaksimon yoqa.

Kostyum pidjagining yengi - uzun, ikki chokli, o'tqazma yeng.

Pidjak uzunligi – bo'ksa chizig'igacha.

Pidjak astarli.

Kostyum pidjagining yoqasi ziylari bo'yicha 0,5 sm kenglikda bezak choki yurgizilgan.

Kostyumning yubkasi klassik uslubda bo'lib, to'g'ri siluetli, erkin bichimli.

Yubkaning old bo'lagi yaxlit bichilgan bo'lib, bel qismda bel vitochkalari mavjud.

Yubkaning orqa bo'lagi yaxlit bichilgan bo'lib, bel qismda bel vitochkalari mavjud.

Kostyum yubkasining chap tomoni yon chokida taqilma mavjud. Taqilma "chaqmoq" tasmasi bilan ishlov berilgan

Yubka bel qismida biriktirma, yaxlit bichilgan belbog'i mavjud. Belbog' bitta tugma va bitta izmada taqiladi.

Kostyumning yubkasi astarli.

Yarim jun matosidan kostyum - oliy o'quv yurti talaba qizlari uchun mo'ljallangan bo'lib, 44-48 , bo'yi 170, II to'liqlik guruhi razmerlari uchun tavsiya qilinadi.

Ikkinchi modelning tashki ko'rinishiga tavsif (1. 1. 2 - rasm)

Yarim jun matosidan oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi. Talaba qizlar formasi yubka va pidjakdan iborat.

Kostyum pidjagi klassik uslubda, to'g'ri bichimli.

Kostyum pidjagining old bo'lagida relyef vitochkalari mavjud bo'lib, old bo'lak va old bo'lak yon qismlaridan iborat. Old bo'lak relyef vitochkalari yyelka chokidan pastki qismigacha.

Kostyum pidjagi markaziy taqilmali. Taqilma 3 ta tugma va 3 ta izmada taqiladi.

Kostyum pidjagi old bo'lagining bel chizig'ida ikki mag'izli qirqma cho'ntak

mavjud .

Kostyum pidjagining old bo'lagi yaxlit bichilgan, relyef vitochkalari mavjud bo'lib, orqa bo'lak va orqa bo'lak yon qismlaridan iborat.

Kostyum pidjagining orqa bo'lagi yaxlit bichilgan, relyef vitochkalari mavjud bo'lib, orqa bo'lak va orqa bo'lak yon qismlaridan iborat.

Kostyum pidjagining yoqasi – o'tkir uchli, pidjaksimon yoqa.

Kostyum pidjagining yengi - uzun, ikki chokli, o'tqazma yeng.

Pidjak uzunligi – bo'ksa chizig'igacha.

Pidjak astarli.

Kostyum pidjagining yoqasi va qopqog'i ziylari bo'yicha 0,5 sm kenglikda bezak choki yurgizilgan.

Kostyumning yubkasi klassik uslubda bo'lib, to'g'ri siluetli, erkin bichimli.

Yubkaning old bo'lagi yaxlit bichilgan bo'lib, bel qismida bel vitochkalari mavjud.

Yubkaning orqa bo'lagining o'rta choki mavjud bo'lib, o'rta chok davomida yopiq kesim mavjud.

Yubkaning belbog'i biriktirma, yaxlit bichilgan bo'lib, bitta tugma va bitta izmada taqiladi.

Kostyumning yubkasining chap tomoni yon chokida taqilma mavjud. Taqilma "chaqmoq" tasmasi bilan ishlov berilgan.

Yubka bel qismida biriktirma, yaxlit bichilgan belbog'i mavjud. Belbog' bitta tugma va bitta izmada taqiladi.

Kostyumning yubkasi astarli.

Yarim jun matosidan kostyum - oliy o'quv yurti talaba qizlari uchun mo'ljallangan bo'lib, 44-48 , bo'yi 170, II to'liqlik guruhi razmerlari uchun tavsiya qilinadi.

Uchinchi modelning tashki ko'rinishiga tavsif (1. 1. 3 - rasm)

Yarim jun matosidan oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi. Talaba qizlari formasi yubka va pidjakdan iborat.

Kostyum pidjagi klassik uslubda, to'g'ri bichimli.

Kostyum pidjagining old bo'lagida relyef vitochkalari mavjud bo'lib, old bo'lak va old bo'lak yon qismlaridan iborat. Old bo'lak relyef vitochkalari yyelka chokidan pastki qismigacha.

Kostyum pidjagi markaziy taqilmali. Taqilma 2 ta tugma va 2 ta izmada taqiladi.

Kostyum pidjagi old bo'lagining bel chizig'ida qoplama cho'ntagi mavjud.

Kostyum pidjagining orqa bo'lagining o'rta choki mavjud.

Orqa bo'lak relyef vitochkalari mavjud bo'lib, o'rta chokli orqa bo'lak va orqa bo'lak yon qismlaridan iborat. Orqa bo'lak relyef vitochkalari yyelka chokidan pastki qismigacha.

Kostyum pidjagining yoqasi – uchlari yoysimon yoqa.

Kostyum pidjagining yengi - uzun, o'tqazma, ikki chokli yeng.

Pidjak uzunligi – bo'lsa chizig'igacha.

Pidjak astarli.

Kostyum pidjagining yoqasi ziylari bo'yicha 0,5 sm va qoplama cho'ntak ziylari bo'yicha 0,3 sm kenglikda bezak choki yurgizilgan.

Kostyumning yubkasi klassik uslubda bo'lib, to'g'ri siluetli, erkin bichimli.

Yubkaning old bo'lagi yaxlit bichilgan bo'lib, bel qismda bel vitochkalari mavjud. Kostyumning yubkasining chap tomoni yon chokida taqilma mavjud. Taqilma "chaqmoq" tasmasi bilan ishlov berilgan.

Yubkaning orqa bo'lagining o'rta choki mavjud bo'lib, o'rta chok davomida yopiq kesim mavjud.

Yubkaning orqa bo'lagi bel qismda bel vitochkalari mavjud.

Kostyumning yubkasi ikki chokli bo'lib, chap tomoni yon chokida taqilma mavjud. Taqilma "chaqmoq"

Yubka bel qismida biriktirma, yaxlit bichilgan belbog'i mavjud. Belbog' bitta tugma va bitta izmada taqiladi.

Kostyumning yubkasi astarsiz.

Yarim jun matosidan kostyum - oliy o'quv yurti talaba qizlari uchun mo'ljallangan bo'lib, 44-48, bo'yi 170, II to'liqlik guruhi razmerlari uchun tavsiya qilinadi.

Nazorat savollar:

1.Kiyimlar qanday -sinflarga bo'linadi?

2. Kiyim qanday talablarga javob berishi kerak?

Mavzu 1.3. Tanlangan model uchun spetsifikatsiya jadvalini to'ldirish

Ishdan maqsad: Tanlangan modelning spetsifikatsiya jadvalini to'ldirish

Ishni bajarish tartibi:

Tanlangan model uchun spetsifikatsiya tuzish

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Tanlangan modelning andazalarini yaratish.
2. Tanlangan kiyimning detallari spetsifikatsiya jadvalini tuzish.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Qalam-oddiy qora, o'chirg'ich
2. Daftar, ruchka

Adabiyot: [12, 122-141-bb.; 17, 6-7-bb.; 18; 19; 20; 21].

Uslubiy qo'llanma

Tanlangan modelni yaratish uchun andazalarining barcha detallari uchun spetsifikatsiya jadvali tuziladi. Jadvalda avra, astar va oraliq detallari hajmiy fazoviy shaklida kiritiladi. Tayyor tekstil materiallari, buyumlari, bezak tasmalar, furnitura, qotirmalar buyum detallari spetsifikatsiya jadvaliga kiritilmaydi.

Kiyimning detallari sxemasi masshtabga rioya qilgan holda chiziladi. Buyumning asosiy detallarga ip yo'nalishlari aniq ko'rsatilib, andazalar soni va bichiqlar soni spetsifikatsiya jadvaliga kiritiladi.

Buyumning detallari ikki guruhga ajratiladi:

Birinchi guruh - buyumning hajmiy fazoviy shaklini aniqlovchi:

- old bo'lak, orqa bo'lak, yeng, yubkaning old bo'lagi, yubkaning ort bo'lagi, shimning old bo'lagi, shimning ort bo'lagi.

Ikkinchi guruh - buyumning hajmiy fazoviy shaklini aniqlamaydigan:

- yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan detallar: mag'iz, ko'rinma, astar, qotirma va boshqalar;

- konstruktiv-dekorativ elementlarga ega bo'lgan detallar: (cho'ntaklar, manjetlar, belbog'lar, bantlar va boshqalar).

Birinchi guruhga kiruvchi detallar asosiy hisoblanadi. Ikkinchi guruhning konstruktiv va hajmiy fazoviy shakli birinchi guruh detallari konstruksiyasi va shakliga bog'liq.

Ishning bajarilishi:

1. 2. 1 - jadval

Spetsifikatsiya jadvali

No	Detallar nomi	Kiyim detalining ko'rinishi	Andazalar soni	Bichiqlar soni
1	2	3	4	5
<i>Pidjak avrasi detallari</i>				
1	Pidjak old bo'lagi		1	2
2	Old bo'lak yon qismi		1	2

1	2	3	4	5
3	Pidjak orqa bo'lagi		1	1
4	Orqa bo'lak yon qismi		1	2
5	Ustki yeng		1	2

1	2	3	4	5
6	Ostki yeng		1	2
7	Ustki yoqa		1	1
8	Ostki yoqa		1	2
9	Adip		1	2

1	2	3	4	5
<i>Pidjak astari detallari</i>				
10	Old bo'lak		1	2
11	Old bo'lak yon qismi		1	2
12	Orqa bo'lak		1	1

1	2	3	4	5
13	Orqa bo'lak yon qismi		1	2
14	Ustki yeng		1	2
15	Ostki yeng		1	2
16	Yyelka tagligi		1	2

1	2	3	4	5
Yubka avrasi detallari				
16	Old bo'lak		1	2
17	Orqa bo'lak		1	2
18	Belbog'			

1	2	3	4	5
<i>Yubka aslari detallari</i>				
19	Old bo'lak		1	2
20	Orqa bo'lak		1	2

Nazorat savollar:

1. Kiyim deb nimaga aytiladi?
2. Zamonaviy kiyimlar qanday klassifikatsiyalanadi?
3. Kiyimga qanday talablar qo'yiladi?

II. GAZLAMA TANLASH VA ASOSLASH

Mavzu 2.1. Kiyim modeli uchun gazlama tanlash

Ishdan maqsad: Tanlangan kiyim uchun gazlama tanlash

Ishni bajarish tartibi:

1. Kiyim modeli uchun gazlama tanlash.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

Tanlangan kiyim uchun gazlama tanlash.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Qalam-oddiy qora
3. O'chirg'ich
4. Tanlangan kiyim uchun tavsiya etiladigan gazlama bo'laklari.

Adabiyot: [5-231; 6- ; 10; 17, 8-9-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Materiallar tanlashda loyihalanilayotgan mahsulotga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, ularni tanlagan modellarga mos kelishiga e'tibor beriladi. Loyihalanilayotgan model turli artikulli materiallardan tayyorlanishi mumkin, lekin bu materiallar fizik-kimyoviy tarkibi va xossalari bo'yicha o'xshash bo'lishi shart, chunki bu texnologik jihozlar va jarayonlarni o'zgartmasligini ta'minlaydi. Mahsulotning avra, astar, oraliq materiallar va furnitura artikullarini aniqlash lozim. Tanlangan materiallarning qisqacha ta'rifi va nima uchun aynan shu materiallar loyihalanilayotgan model uchun tavsiya etilayotgani asoslanadi.

Ishning bajarilishi:

O'lchov olinib, model to'liq o'rganib chiqilgandan so'ng, o'lchov asosida buyum tikishni va ularga qo'yiladigan talablar o'rganilib, so'ng gazlama tanlanadi.

Gazlama tanlanayotganda, gigienik talablarga ob - havoning ta'siri, gazlamaning xossalari, suv o'tkazuvchanligi, havo o'tkazuvchanligi, rangi va kiyimning konstruksiyasi o'rganiladi. Gigienik talab - bu sog'lig'imizni saqlash uchun kiyimlarimiz havoni yaxshi o'tkazishi kerak. Kiygan kiyimimiz qulay va ixcham bo'lishi kerak. Yuqorida keltirilgan talablardan kelib chiqqan holda,

laboratoriya ishida oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi uchun yarim jun matosi tanlandi.

Talabalar juda ko'p harakat qiladi, terlab tez kasal bo'lishi mumkin, tabiiy tolali yarim jun matosi esa namlikni o'zida singdira olish xususiyatiga ega, ishqalanganda o'zidan elektr hosil qilmaydi va o'ta chidamli gazlama.

Estetik talablarga asosan kiyimning sifatiga bog'liqdir. Kiyim chiroyli, did bilan tikilgan va qulay bo'lishi kerak. Kompozitsiyasi to'g'ri tanlangan bo'lishi kerak. Estetik talabga kiyimlar qayerda kiyilishiga qarab tanlanadi.

Texnik talablarga kiyimning pishiqligi, tez ishdan chiqmasligi, tashqi muhitga chidamliligi kiradi. Texnik talab - kiyim sitilmasligidir. Buning uchun biz gazlama sifatini ajrata olishimiz shart. Gazlama tanlashda uning xossasiga, uning foydasiga va chiroylisini tanlashimiz zarur. Foydali xususiyat deb tabiiy tolalardan tikilgan, havo o'tkazuvchan, kam g'ijimlanadigan gazlama tanlashimiz kerak.

Nazorat savollar:

1. Tabiiy gazlamalarga tavsif bering.
 2. Sun'iy gazlamalarga tavsif bering.
-

Mavzu 2.2. Kiyim modeli uchun tanlangan gazlamani asoslash

Ishdan maqsad: Tanlangan kiyim uchun gazlamani asoslash

Ishni bajarish tartibi:

1. Kiyim modeli uchun gazlama tanlash.
2. Kiyim modeli uchun tanlangan gazlamani asoslash.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

Tanlangan gazlamani asoslash.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Qalam-oddiy qora
2. O'chirg'ich
3. Akvarel bo'yoq
4. Tanlangan kiyim uchun gazlama bo'laklari

Adabiyot: [5-231; 6 ; 10; 17, 8-9-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Tanlangan materiallarning qisqacha ta'rifi va nima uchun aynan shu materiallar loyihalanilayotgan model uchun tavsiya etilayotgani asoslanadi.

Loyihalanilayotgan kiyim uchun mo'ljallangan materiallar assortimentining tahlili asosida 3-4 artikulli material tanlanadi, ularning gigienik, ekspluatatsion va estetik xossalari haqida aytib o'tiladi.

Ishning bajarilishi:

Astarlik gazlama xarakteristikasi: Tanlangan model uchun yarim jun matosi tanlandi. Yarim jun gazlamasi - bo'ylama yo'lli aralash o'rilishda qavariq bo'ylama yo'lli qilib to'qilgan zich, yupqa va nafis gazlama. Tandasi va arqog'iga 25 teks x 2 li pi-

shitilgan jun kalava ip ishlatiladi. Tanda kalava ipiga teksli ozgina kapron iplar ishlatilganligi uchun gazlama yaltirab turadi. Gazlama tarkibida 63 % tabiiy jun bor. Eni 142 sm, 1 m² gazlamaning massasi 282 g.

Shuningdek, oliygoh talabalari kostyumi uchun yarim jun «Verxnevoljskaya» matosi ham tavsiya etiladi, ushbu mato — yupqa gazlama. Tandasiga 25 teks x 2 x li pishitilgan kalava ip, arqog'iga 31 teksli yakka kalava ip ishlatib polotno yoki sarja o'rinishda to'qiladi. Gazlama tarkibida 65% jun, 35% lavsan bor. Eni 140 sm, 1 m² gazlamaning massasi 209 g.

Shunindek, oliygoh talabalari kostyumi uchun «Parus» yarim jun gazlamasi tavsiya etiladi, art. 23553S - 60% lavsan shilgan 25 teks x 2 li aralash jun kalava ipdan krep o'rinishda to'qiladigan yupqa, qayishqoq, katak gulli gazlama. Tandasi va arqog'ida 16,67 teksli viskoza ip qo'shib pishitilgan. Viskoza gazlamaning yaltiroqligini oshiradi. Eni 152 sm, 1 m² gazlamaning massasi 240 g.

Yana oliygoh talabalari kostyumi uchun- artikuli 23596 S yarim jun gazlamasi tavsiya etiladi, aralash o'rinishdagi qalin gazlama. Kalava ipining xili jihatidan art. 23553S gazlamasiga o'xshaydi, jun miqdori 29%. Eni 152 sm, 1 m² gazlamaning massasi 303 g, shuningdek «Mif» yarim jun matosi-krep o'rinishdagi dag'al, qayishqoq gazlama. Tandasining strukturasiga ko'ra art. 23553 gazlamasiga o'xshaydi, arqog'iga 22 teks x 2 li pishitilgan jun kalava ip ishlatilgan. Tayyor gazlamadagi jun miqdori 63%. Eni 152 sm, 1 m² gazlamaning massasi 235 g.; «Rosa» yarim jun-bo'ylama yo'lli aralash o'rinishdagi qayishqoq, qalin guldor gazlama. Tandasi va arqog'iga 30 % lavsan qo'shilgan 22 teks x 2 li aralash kalava ip ishlatilgan. Jun miqdori 64 ch %. Eni 142 sm, 1 m² gazlamaning massasi 270 g.; «Vitim» yarim jun gazlamasi - bo'ylama yo'li qavariq o'rinishdagi qalin, qayishqoq gazlama. Kalava ipining xili

va jun miqdoriga ko'ra «Rosa» gazlamasiga o'xshaydi. Eni 142 sm, 1 m² gazlamaning massasi 260 g.; «Parus» yarim jun matosi-aralash o'rilishdagi mayin, aniq yirik katak gulli gazlama. Tandasida, 22 teks X 2 li jun kalava ip xuddi shunday kalava ipga viskoza ip qo'shib pishitilgan kalava ip bilan galma-gal keladi. Arqog'iga 22 teks X 2 li jun kalava ip ishlatilgan. Gazlama tarkibida 65% jun, 35% lavsan tola bor. Eni 152 sm, 1 m² gazlamaning massasi 244 g. Tarkibida 50% mayin jun yoki 50% nitron bo'lgan kostyumlik gazlamalar ancha qayishqoq bo'lib, o'rilish naqshi yaqqol bilinib turadi. Bular mayda gulli o'rilishda to'qilgan gazlamalar: art. 23726S V- bo'ylama yo'l-yo'l o'rilishda to'qiladi, ensiz reps va krep yo'llari galma-gal keladi va gazlama «Suvenir» art. 23725S va art. 23755S gazlama ham bo'ylama yo'l-yo'l o'rilishda to'qiladi.

Astarlik gazlama xarakteristikasi: Tikuvchilik buyumlari turli xil gazlamalardan iborat, yarim jun matolari - zich o'ralgan, dag'al bo'lishi mumkin. Kiyim odam tanasida ixcham turishi va chidamli bo'lishi uchun astarlik gazlama ishlatiladi. Astarlik gazlama - avra gazlamasi choklarini yashiradi, kiyim egasi tanasini va avra gazlamasini himoya qiladi, namlikni yutadi hamda kiyimning qiymatini pasaytiradi.

Astarlik gazlamalari xilma xildir: tafetta (tafta), shifon, atlas, kupro (kupra), flanel, setka, satin, viskoza va boshqalar.

Oliygoch talabalari kostyumi uchun astarlik kupro (kupra) gazlamasi tanlandi. 1918 yil miss-amiak tolali viskoza gazlamasi ixtiro qilinib, gazlama kupro (kupra) nomi bilan tanilgan. Kupro (kupra) gazlamasi ipak matosiga o'xshaydigan, sun'iy mato. Gazlama juda yumshoq, chidamli, elastik, egiluvchan, sirpanuvchan, elastik va havo o'tkazuvchan. Shu xususiyatlariga qaramay, mato xaridorgir, arzon. Gazlama g'ijimlanmaydi. Tikuvchilik buyumlarining astari sifatida juda keng qo'llaniladi.

Oraliq gazlama xarakteristikasi:

Kiyim detallariga ishlov berib, turg'unlashtirish texnika va texnologiyani yangi yo'nalishi hisoblanadi.

Yarim jun matosidan oliy o'quv yurti talaba qizlar formasi (yubka va pidjak)ning barqarorligini oshirish, shaklining sifatini oshirish, mahsulotning xizmat qilish davrini uzaytirish, matoning cho'zilishini oldini olish uchun dublerin matosi tanlandi.

Dublerin – bir tomoni yopishqoq kley syepilgan oraliq mato hisoblanadi. Dublerin- kimyoviy tolalardan iborat bo'lgan yelimli yopishqoq polotno bo'lib, uning sifati kimyoviy tolalarning sifati, miqdori va uni ishlab chiqarilgan texnologik jarayoniga bog'liq. Dublerin tufayli kiyimlar hajmi va shaklini saqlab qoladi hamda mahsulot yuvilganda g'ijimlanmaydi va dazmollangandan keyin deformatsiyalanmaydi, uzoq xizmat qiladi va sekin eskiradi.

Tugma tanlash va uning xarakteristikasi:

Pidjaklar bir bortli yoki ikki bortli bo'lishi mumkin. Hozirgi davr talabiga ko'ra bir bortli pidjaklar keng tarqalgan. Bir bortli pidjaklarda tugmalar soni har xil bo'ladi. Odatda, bir bortli pidjaklarning yeng pastki tugmasi etiket bo'yicha taqilmaydi, chunki pidjaklardagi yeng pastki tugma qadash uchun mo'ljallanmagan. Ikki bortli pidjaklarda tugmalar to'liq qadaladi. Uzoq vaqt partada o'tiradigan vaqtda, hamda ba'zi bir norasmiy sharoitlarda pidjaklarning tugmalarini to'liq ochish mumkin. Partadan turib, odob-axloq qoidalariga ko'ra, tugmalarni yana qadash lozim.

Nazorat savollar:

1. Tanlangan model uchun gazlama qanday tanlanadi?
2. Tanlangan gazlama haqida ma'lumot bering.
3. Gazlamaning tolaviy tarkibi haqida gapiring.

Mavzu 2.3. Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi jadvalini to'ldirish konfeksion xarita tayyorlash

Ishdan maqsad: Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi
jadvalini to'ldirish konfeksion xarita tayyorlash.

Ishni bajarish tartibi

1. Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi jadvalini to'ldirish
2. Konfeksion xarita tayyorlash.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

Tanlangan va tavsiya etiladigan materiallar tavsifi jadvalini
va konfeksion xaritasi jadvalini to'ldirish.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Qalam-oddiy qora
2. O'chirg'ich
3. Tanlangan kiyim uchun gazlama bo'laklari

Adabiyot: [5-231; 6- ; 10; 17, 8-9 bb.]

Uslubiy qo'llanma

Tanlangan avra, astar, oraliq materiallar va furnitura
namunalaridan A4 formatda konfeksion xarita tuziladi.

Tanlangan materiallar haqida ma'lumotlar quyidagi
jadvalda keltiriladi.

2. 3. 1 - jadval

Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi

№	Material nomi	Artikul	Eni, sm	Tolaviy tarkibi, %
1.	Avra			
2.	Astar			
3.	Oraliq			

2. 3. 2 - jadval

Konfeksion xarita

No K/K	Gazlama nomi	Artikul	Gazlama namunasi
1.	Avra		
2.	Astar		
3.	Oraliq		
4.	Furnitura		

Ishning bajarilishi:

2. 3. 3 - jadval


Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi


No	Material nomi	Artikul	Eni, sm	Tolaviy tarkibi, %
1	2	3	4	5
Avra:				
1	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Grot»	23725	142	63 % jun, 37 % lavsan
2	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Verxnevoljskaya »	23755	140	65 % jun, 35 % lavsan
3	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Parus»	23553S	152	60 % jun, 40 % viskoza
1	2	3	4	5
4	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Vitim»	23757	142	63 % jun, 36 % lavsan
5	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Suvenir»	23725	142	65 % jun, 35 % lavsan
6	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Exo»	21526	142	54 % jun, 46 % lavsan
7	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Radost»	21533	142	45 % jun, 55 % lavsan
8	Kostyumlik yarim jun gazlamasi matosi «Ajur»	21529	142	43 % jun, 57 % lavsan


9	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Rossiya"	21543	142	45 % jun, 55 % lavsan
10	Kostyumlik yarim jun gazlamasi	21501	142	40 % jun, 60 % lavsan
11	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Valtarina"	21565	142	45 % jun, 55 % lavsan
12	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Nejnost"	21543	142	57 % jun, 43 % lavsan
<i>Astar:</i>				
13	Kupro (kupra)	227777	150	100% viskoza
14	Tafetta (tafta)	180 T	150	100% poliester
15	Shifon	142120	140	100 % neylon
16	Atlas	219777		70 % viskoza, 30 % neylon
17	Flanel	2762-90	85	100% paxta
18	Setka	8TS15-KVgl+ASO	150	100% poliester
1	2	3	4	5
<i>Oraliq:</i>				
19	Flezelin	482	90	plotnost 40 g/m ²
20	Flezelin	422	90	plotnost 30 g/m ²
<i>Furnitura:</i>				
21	Tugma dq20 mm	Model 27	24 lin – 20 mm	
22	Chaqmoq tasma	555	20 m	

2. 3. 4 - jadval

Konfeksion xarita

№ № K/K	Gazlama nomi	Artikul	Gazlama namunasi
1	2	3	4
Avra :			
1	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Grot»	23725	
2	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Verxnevoljskaya »	23755	
3	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Parus»	23553S	
4	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Vitim»	23757	
5	Kostyumlik yarim jun gazlamasi «Suvenir»	23725	

1	2	3	4
6	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Exo"	21526	
7	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Radost"	21533	
8	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Ajur"	21529	
1	2	3	4
9	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Rossiya"	21543	
10	Kostyumlik yarim jun gazlamasi	21501	
11	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Valtarina"	21565	

1	2	3	4
12	Kostyumlik yarim jun gazlamasi "Nejnost"	21543	
<i>Astar:</i>			
13	Kupro (kupra)	227777	
14	Tafetta (tafta)	180 T	
15	Shifon	142120	
16	Atlas	219777	
17	Flanel	2762-90	
18	Setka	8TS15-KVgl+ASO	

1	2	3	4
<i>Oraliq mato:</i>			
19	Flezelin	482	
20	Flezelin	422	
<i>Furnitura:</i>			
21	Tugma, diametr - 30 mm	Model 27	
22	Chaqmoq tasma	555	

Nazorat savollar:

1. Talabalar kostyumining rangini tanlanlayotgan vaqtda nimalarga ahamiyat berish kerak.
2. Kostyumning mustahkamligi va sifatiga ta'sir etadigan omillarni ayting.
3. Kundalik kiyimni tanlash uchun nimalarga ahamiyat berish kerak.

III. ISHLOV BERISH USULLARI VA JIHOZLARNI TANLASH

Mavzu 3.1. Ishlov berish usullarini tanlash va tikib- ulash uchun qo'llaniladigan choklar jadvalini to'ldirish

Ishdan maqsad: Ishlov berish usullarini tanlash va tikib-
ulash uchun qo'llaniladigan choklar jadvalini to'ldirish

Ishni bajarish tartibi:

1. Ishlov berish usullarini tanlash.
2. Tikib-ulash uchun qo'llaniladigan choklar jadvalini to'ldirish.

Ishga tayyorlanish uchun savollar:

1. Qo'lda bajariladigan ish turlari haqida umumiy ma'lumot bering.
2. Mashinada bajariladigan ish turlari haqida umumiy ma'lumot bering.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Qalam-oddiy qora
3. O'chirg'ich

Adabiyot: [8, 19-56-bb.; 8, 232-254-bb.; 10, 14-20-bb.; 13, 22-29-bb.; 17, 10-12-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Kiyimning sifati va uning ishlov berish narxi asosan ishlov berish usuliga bog'liq bo'ladi. Shunga asoslanib, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun oqimni zamonaviy unumli jihozlar va kichik mexanizatsiya vositalarini tanlab, vaqt sarfini tejash lozim.

Buyumni ishlab chiqarishda qo'llanadigan tikib-ulash operatsiyalari, tanlangan mashinalar va namlab-isitib ishlov berish jihozlari haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda ko'rsatiladi.

3. 1. 1 - jadval

Tikib-ulash uchun qo'llaniladigan choklar

No	Chokning turi	Chokning tasviri	10 mm chokka to'g'ri keladigan baxya soni	Qo'llanilishi
1	2	3	4	5

Ishning bajarilishi:

Asbob-uskuna va tikish usullari ishlab chiqarish oqimida tayyorlanadigan mahsulot va ishchilar soniga qarab tanlanadi. Shu bilan birga, tikuvchilik sanoatining texnika va texnologiyasini takomillashtirish asosiy yo'nalishlari, detallarni yyelimlab ulash, unumdorligi yuqori bo'lgan asbob-uskunalarni maksimal qo'llash, sermehnat qo'l ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, yaxlit bichilgan detallar va kam operatsiyali texnologiyadan foydalanish hisobga olinadi.

Buyumni tikishda qo'llaniladigan chok turlari, asbob-uskunalar tavsifi, texnologik ishlov berish tartiblari jadval shaklida ko'rsatiladi. Kiyimning sifati va uni tikish narxi ko'p jihatdan tikish usuliga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham tikish usullari yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilish va zamonaviy mashina va moslamalardan maksimal foydalanishni talab qiladi.

Bir vaqtda turli kiyim tikiladigan oqimlarini loyihalashda, ayrim uzellari tikish uchun hamma tur kiyimlarni tikishga to'g'ri keladigan yagona usul tanlangani ma'qul. Tikish usullarini tanlashda aslida bir xil usulda tikilishi mumkin bo'lgan bo'rt,



yoqa, yeng o'tkazish kabi detal va uzellarini tikish uchun bir xil me'tod tanlashga e'tibor beriladi.

Oqimlarni loyihalashda tikish usuli oqimda ishlab turgan uskunalarni hisobga olib tanlanadi va eskirgan mashinalar o'rniga yangilari o'rnatiladi. Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiya - tikish jarayonining texnologik jihatdan maydaroq ishlarga ajratilishi mumkin bo'lmagan yaxlit bir elementdir.

3. 1. 2 - jadval

Tikib-ulash uchun qo'llaniladigan choklar

No	Chokning turi	Chokning tasviri	10 mm chokka to'g'ri keladigan baxya soni	Qo'llanilishi
1	2	3	4	5
1	Biriktirma chok		3,0 - 5,0	Buyum detallarini biriktirib tikishda qo'llaniladi
2	Yorib dazmollangan biriktirma chok		3,0 - 5,0	Pidjakning yyelka, yon choklarida va yubkaning yon choklarida ishlov berishda qo'llaniladi
3	Bostirib dazmollangan biriktirma chok		3-4	Relyef chokiga, ishlov berish uchun qo'llaniladi

1	2	3	4	5
4	Bostirma chok		1,3 - 2,0	Yubka etagini buklab tikishda qo'llaniladi
5	Ag'darma chok		3,0 - 5,0	Pidjak bortiga, pidjaksimon yoqasiga ishlov berishda qo'llaniladi
6	Izma yo'rmalash		10,0 - 12,0	Pidjak markaziy taqilmasiga va yubka belbog'ining taqilmasiga izma yo'rmalashda qo'llaniladi
7	Tugma tikish		10,0 - 12,0	Pidjak markaziy taqilmasiga va yubka belbog'ining taqilmasiga tugma tikishda qo'llaniladi

Nazorat savollar:

1. Kiyim etagi qanday tekislanadi?
2. Kiyim etagini tikishning qanday usullari bor?
3. Ko'ylak etagiga mag'iz yoki beyka qo'yishning qanday usullari bor?
4. Kiyimga tugma qayday qadaladi?
5. Kiyimga temir ilgak va knopkalar qanday chatiladi?

Mavzu 3.2. Zamonaviy jihozlarni tanlash va mashinalar tavsifnomasi jadvalini to'ldirish

Ishdan maqsad: Zamonaviy jihozlarni tanlash va mashinalar tavsifnomasi jadvalini to'ldirish

Ishni bajarish tartibi:

1. Jihozlarni tanlash.
2. Mashinalar tavsifnomasi va jadvalini to'ldirish.

Ishga tayyorlanish uchun savollar:

1. Qo'lda bajariladigan ish turlari haqida umumiy ma'lumot bering.
2. Mashinada bajariladigan ish turlari haqida umumiy ma'lumot bering.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Qalam-oddiy qora
3. O'chirg'ich

Adabiyot: [8, 19-56 bb.; 8, 232-254 bb.; 10, 14-20 bb.; 13, 22-29 bb.; 13, 118-143 bb.; 17, 10-12 bb.]

Uslubiy qo'llanma

Asbob-uskuna va tikish usullari ishlab chiqarish oqimida tayyorlanadigan mahsulot va ishchilar soniga qarab tanlanadi. Shu bilan birga tikuvchilik sanoati texnika va texnologiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, detallarni yyelimlab ulash, unumdorligi yuqori bo'lgan asbob-uskunalarni maksimal qo'llash, sermehnat qo'l ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, yaxlit bichilgan detallar va kam operatsiyali texnologiyadan foydalanish hisobga olinadi.

Buyumni tikishda qo'llaniladigan chok turlari, asbob-uskunalar tavsifi, texnologik ishlov berish tartiblari jadval

shaklida ko'rsatiladi. Kiyimning sifati va uni tikish narxi ko'p jihatdan tikish usuliga bog'liq. Shuning uchun ham tikish usullari yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va zamonaviy mashina va moslamalardan maksimal foydalanish kerak.

Bir vaqtda turli kiyim tikiladigan oqimlarni loyihalashda ayrim uzellari tikish uchun hamma tur kiyimlarni tikishga to'g'ri keladigan yagona usul tanlangani ma'qul. Tikish usullarini tanlashda aslida bir xil usulda tikilishi mumkin bo'lgan bort, yoqa, yeng o'tkazish kabi detal va uzellarini tikish uchun bir xil metod tanlashga e'tibor beriladi.

Oqimlarni loyihalashda tikish usulini oqimda ishlab turgan uskunalarni hisobga olib tanlanadi va eskirgan mashinalar o'rniga yangilari o'rnatiladi. Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiya tikish jarayonining texnologik jihatdan maydaroq ishlarga ajratilishi mumkin bo'lmagan yaxlit bir elementdir.

Kiyimning sifati va uning ishlov berish narxi asosan ishlov berish usuliga bog'liq bo'ladi. Shunga asoslanib, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun oqimni zamonaviy unumli jihozlar va kichik mexanizatsiya vositalarini tanlab, vaqt sarfini tejash lozim.

3. 2. 1 - jadval

Mashinalar tavsifnomasi

No	Mashina- ning turi	Sinfi, ishlab chiqargan zavodi	Qo'llanilishi	Baxyaqator turi	Bosh val tezligi ayl/min	Igna turi	Ip turi
1	2	3	4	5	6	7	8

Ishning bajarilishi:

3. 1. 2 - jadval

Mashinalar tavsifnomasi

№	Mashinaning turi	-sinfi, ishlab chiqargan zavodi	Qo'llanilishi	Baxyaqator turi	Bosh val tezlig ayl/min	Igna turi	Ip turi
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Universal tikuv mashinasi	DDL-8100e -sinf, Juki	Avra detallariga ishlov berish uchun qo'llaniladi	moki	5500 min ⁻¹	0203-100 0203-110 0203-120 0203-130	Armir. № 36LX, 35LX-1, lavsan № 55L, 33L
2	Universal tikuv mashinasi	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki	Astar detallariga ishlov berish uchun qo'llaniladi	moki	5500 min ⁻¹	0052-90 0052-100 0052-110	Armir. № 36LX, 35LX-1, lavsan № 55L, 33L
3	Maxsus mashina	DP-2100SZ -sinf, Juki	Pidjak yengini yeng o'miziga o'tqazish uchun qo'llaniladi	moki	3500 min ⁻¹	DPX 17	Armir. № 36LX, 35LX-1, lavsan № 55L, 33L
3	Izma yo'rimalaydigan yarim avtomat	LBH-780U -sinf Juki	Pidjak markaziy taqilmasiga va yubka belbog'ining taqilmasiga izma yo'rimalash uchun qo'llaniladi	zanjir	3600 min ⁻¹	DR x 5-11:134 Nm 75 DR	Armir. № 36LX, 35LX-1, lavsan № 55L, 33L

1	3	3	4	5	6	7	8
4	Tugma qadaydigan yarim avtomat	MB-1373 - sinf Juki	Pidjak markaziy taqilmasiga va yubka belbog'ining taqilmasiga tugma qadash uchun qo'llaniladi	zanjir	1500 min ⁻¹	TQx1 №90-120	Armir. № 36LX, 35LX-1, lavsan № 55L,33L

Nazorat savollar:

1. Tikuv mashinalarida hosil qilinadigan baxyalar nomini aytib bering.
2. Moki baxyali mashinalarda qanday baxyaqatorlar hosil qilish mumkin?
3. Zanjirsimon baxyali mashinalarda qanday baxyaqatorlar hosil qilish mumkin?
4. Tikuv mashinalarida ip va igna qayday tanlanadi?

Mavzu 3.3. Namlab-isitib ishlov berish jihozlarini tanlash, namlab-isitib ishlov berish jadvallarini to'ldirish

Ishdan maqsad: Namlab-isitib ishlov berish jihozlarini tanlash, namlab-isitib ishlov berish jadvallarini to'ldirish.

Ishni bajarish tartibi:

1. Namlab-isitib ishlov berish jihozlarini tanlash.
2. Namlab-isitib ishlov berish jihozlari tavsifnomasi jadvallarini to'ldirish.

Ishga tayyorlanish uchun savollar:

1. Qo'lda bajariladigan ish turlari haqida umumiy ma'lumot bering.
2. Mashinada bajariladigan ish turlari haqida umumiy ma'lumot bering.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Qalam-oddiy qora
3. O'chirg'ich

Adabiyot: [8, 19-56-bb.; 8, 232-299-bb.; 10, 14-20-bb.; 13, 22-29-bb.; 17, 10-12-bb.] 5-ilova

Uslubiy qo'llanma

Buyumni ishlab chiqarishda qo'llanadigan namlab-isitib ishlov berish jihozlari haqidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda ko'rsatiladi.

3. 3. 1 - jadval

Namlab-isitib ishlov berish jihozlari tavsifnomasi

№	Jihozning turi, ishlab chiqargan zavodi	Qo'llanilishi	Isitish usuli	O'lchami, mm			Isitish harorati, °S
				uzunligi	eni	balandligi	
1	2	3	4	5	6	7	8

Ishning bajarilishi:

Kiyim tikishda kiyim detallarini namlab-isitib ishlashga katta ahamiyat beriladi, chunki bu texnologik jarayonda detallarga va umuman kiyimga ma'lum shakl beriladi, uning tashqi ko'rinishi yaxshilanadi.

Ust kiyim bo'laklarini turg'unlashtirish va ba'zi foydalanish xususiyatlarini yaxshilash uchun, keyingi yillarda kiyimning ayrim bo'laklari yoki uchastkalariga to'qima yoki noto'qima

materiallarga yvelim qorejagan qotirmalar yopishtiriladigan bo'ladi.

Tikuvchilik korxonalarida qotirmalar yassi yostiqli maxsus presslard a yopishtiriladi. Hozirgi paytda erkaklar pidjagining bort qoplamasi ikki qavat: asosiy qotirma va qo'shimcha qotirmadan iborat bo'lib, uning qo'shimcha qotirma qavatini o'rish iplari asosiy qotirmaning iplariga nisbatan 30° yoki 75° burchak ostida bichilgan bo'ladi. Bunday qotirmani pidjakka yopishtirish va shakl berish iplari bir vaqtning o'zida bajariladi.

Namlab-isitib ishlov berish (NIIB) so'zi - bug' issiqlik bilan kiyimga ishlov berishni anglatadi. Bug' matoga to'g'ridan-to'g'ri shakl berish uchun, shuningdek, jihozning turli qismlarini (havo isitgichlarini, dazmollarni va h.k.) isitish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, bug' generatorlari pardoqlash uskunolari to'plamining ajralmas qismi hisoblanadi. Ob'ektni loyihalashda ikkita variant ko'zda tutilishi mumkin: uskunaning barcha to'plamini bug' bilan ta'minlash uchun bitta markaziy bug' generatorini ishlatish yoki uskunaga o'rnatilgan kam quvvatli elektr bug' generatorlarini ishlatish. Birinchi variant yanada professional bo'lib ko'rinadi, ammo NIIBning ustaxonasida bug' va oqimda kondensat liniyalarini joylashtirishni talab qiladi.

Dazmol stoli. Professional dazmollash stoli uy sharoitida ishlatiladigan dazmol taxtasidan kuchli isitish quvvati va vakuumli dazmollash uskunasing mavjudligi bilan katta farq qiladi. Professional dazmollash stollari dazmolchining ish unumdorligini va qulayligini oshiradi. Dazmol stollarining yuzasi har xil shakllarga ega bo'lishi mumkin – katta, kichik, yassi va h.k. (5-ilova)

3. 3. 2 - jadval

Namlab-isitib ishlov berish jihozlari tavsifnomasi

№	Jihozning turi, ishlab chiqargan zavodi	Qo'llanilishi	Isitish usuli	O'lchami, mm			Isitish harorati, °S
				uzunligi	eni	balandligi	
1	Dazmol Cs – 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya	Kostyum astarini namlab-isitib ishlov berishda qo'llaniladi	elektr	1400	700	600	150 ⁰ -160 ⁰
2	Press Cs-394 KE+ 1392-sinf Pannoniya Vengriya	Kostyum detallariga yyelimli qotirma yopishtirish uchun qo'llaniladi	elektr	1450	710	600	130 ⁰ -140 ⁰
3	Bug' manekeni – MG-321 - sinf	Buyumni namlab-isitib ishlov berishda qo'llaniladi	bug'	1450	1450	1650	100 ⁰ -120 ⁰

Bug' manekeni. Eng oddiy universal bug' manekenlari – (deyarli har qanday kiyimni kiyish mumkin, ammo sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va katta unumdorlikga erishish mumkin emas) va yuqori sifatga ega bo'lgan maxsus universal manekenlari – (turli xil mahsulotlarni tez va samarali ravishda ishlov berishga imkon beradi), maxsus bug' manekenlari – (yuqori unumdorlik va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi).

Shim kiydiruvchi topplerlar. Shimlarni namlab-isitib ishlov berish uchun ishlatiladi, ushbu uskuna shimga stryelka chizig'ini chiqarish uchun juda qulay uskuna hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bunday uskunaning yangi turi paydo bo'ldi – shimning ustki va

shim presslarining yuqori samarali namlab-isitib ishlov berish uchun ishlatiladi. (6-ilova)

Press – pardoqlash tikuvchilik buyumlarining yeng oxirgi uskunasi hisoblanadi. Presslarning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular yoqa, manjet, shim va h.k. larga ishlov berish uchun qo'llaniladi. Presslarning narxi juda baland, ular ko'pincha ommaviy ishlab chiqarish korxonalarida keng ishlatiladi (7-ilova).

Nazorat savollar:

1. Buyumga qanday namlab-isitib ishlov beriladi?
2. Namlab-isitib ishlov beriladigan asbob-uskunalari haqida ma'lumot bering.
3. Namlab-isitib ishlov berish usullari haqida ma'lumot bering.

Mavzu 4.1. Bir modeli texnologik oqimlar uchun texnologik ketma-ketlik tuzish

Ishdan maqsad:

Bir modeli texnologik oqimlar uchun ishlov berish ketma-ketlikini tuzishni o'rganish.

Vaqt sarfini, mutaxassislik va razryadlarni tanlashni o'rganish. Jihoz va asboblarni to'g'ri tanlash.

Ishni bajarish tartibi:

1. Bo'linmas operatsiyaga tushuncha berish.
2. Bir va ko'p modeli texnologik oqimlar uchun texnologik ketma-ketlik tuzish.
3. Texnologik ketma-ketlikning tuzilishiga tavsif.
4. Vaqt sarfini tanlash yoki hisoblashni o'rganish.
5. Mutaxassislik va razryadni qo'llanma (spravochnik) asosida belgilashni o'rganish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Bo'linmas operatsiyaga tushuncha bering.
2. Vaqt sarfi qanday aniqlanadi?

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Kalkulyator
3. Qalam-oddiy qora
4. O'chirg'ich

Adabiyot: [1,149-153-bb.; 2,75-78-bb.; 7,127-b; 8,258-261-bb.;13,149-153-bb; 17, 14-15-bb., 29]

Uslubiy qo'llanma

Buyumga ishlov berish bu bo'linmas operatsiyalarning ketma-ket bajarilishidir. Ularning soni buyumning turiga, modelning murakkabligiga, detallarning soniga, ishlov berish usuliga va gazlama turiga bog'liq.

Texnologik bo'linmas operatsiya deb texnologik jihatdan o'z ichida bo'laklarga bo'linmaydigan operatsiyaga aytiladi.

Simmetrik detallar yoki tugunlar bitta bo'linmas operatsiyalar tuzilishiga kiradi.

Har bir bo'linmas operatsiyalarning nomi jadvalda to'liq va aniq yoziladi.

Buyumga ishlov berish ketma-ketliki jadval orqali beriladi.

Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiya tikish jarayonining texnologik jihatdan maydaroq ishlarga ajratish mumkin bo'lmagan yaxlit bir elementdir (cho'ntak qopqog'ini ag'darma chok bilan tikish, yyelka chokini tikish, yon choklarini yorib dazmollash va h.k.).

Har bir tur kiyimni ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik jihatdan bo'linmas operatsiyalarning mazmuni va miqdori jarayonning tashkiliy shakllariga bog'liq emas. Kiyim tikish usuli

o'zgarishi bilan birga texnologik jihatdan bo'linmas operatsiyalar soni ham ortib boradi.

Masalan, palto yoki kostyum tikishda 300 dan ortiq texnologik bo'linmas operatsiyalar bo'lishi mumkin.

Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalar tanlangan eng maqbul tikish usullari fabrikaning tajriba bo'limida tuziladi. Bu operatsiyalarni ishlab chiqish, tikish usularini aniqlashda ishlatiladigan uskunalarni, kichik mexanizatsiya vositalarini, asboblarni, tikish texnologik rejimini tanlashdan, ishlarning qaysi razryadga oidligini va operatsiyalar bajarilishi uchun texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalarning texnologik tartibi berilgan jadval bo'yicha tuziladi.

Texnologik ketma-ketlik jadvalning 3-xonasida har qaysi operatsiya qanday uskunada bajarilishi qisqartirib yoziladi: D – dazmol, M – mashina, MM – maxsus mashina, P – press, Q – qo'lda.

4. 1. 1 - jadval

Bir modelli oqimning texnologik ketma-ketligi

No	Bo'linmas operatsiyalar nomi	Mutaxassisligi	Razryad	Vaqt sarf,sek	Jihozlar, moslamalar
1	2	3	4	5	6

bu yerda:

Jadvalning 1 - ustunida – bo'linmas operatsiyalarning ketma-ketlik raqami yoziladi;

Jadvalning 2 - ustunida - bo'linmas operatsiyalarning nomlanishi;

Jadvalning 3 - ustunida - mutaxassislik-bajariladigan asbob-uskunaning bosh harfi yoziladi:

M - mashina(universal mashinada bajariladigan ishlar. Masalan: Bostirib tikish, birlashtirib tikish, bezak choki berish...)

MM - maxsus mashinada bajariladigan ishlar. Masalan: Yengni yeng o'miziga o'tkazish...;

A - avtomada bajariladigan ishlar. Masalan: Izma yo'rmalash, tugma tikish...;

YaA - yarim avtomatda bajariladigan ishlar. Masalan: Izma yo'rmalash, tugma tikish...;

D - dazmolda bajariladigan ishlar. Masalan: yorib dazmollash, bostirib dazmollash, namlab-isitib ishlov berish...;

P - presda bajariladigan ishlar. Masalan: yelimli qotirma yopishtirish, namlab-isitib ishlov berish...;

FP - falspressda bajariladigan ishlar. Yoqaga, manjetga yelimli qotirma yopishtirish, shakl berish, namlab-isitib ishlov berish...;

BM - bug' manekenda bajariladigan ishlar. Tayyor buyumning nuqsonlarini yo'qotish, namlab-isitib ishlov berib pardoqlash;

Q - qo'lda bajariladigan ishlar. Masalan: Qabul qilib olish, sifatini tekshirish, qayd qilish, tarqatish, o'ngga qaytarish, to'g'rilash, kertiklash, kesish, yuborish, belgilash...

Jadvalning 4 - ustunida - ishning razryadi ishning murakkabligiga qarab 1 - razryaddan 5 - razryadgacha yoziladi.

Jadvalning 5 - ustunida - bo'linmas operatsiyalarning vaqt sarfi tipik normativ hujjatdan olinadi yoki xronometraj usuldan foydalanib 1 sm 1 sek deb olinadi.

Jadvalning 6 - ustunida - bo'linmas operatsiyada qaysi asbob-uskunada ishlov berilsa, shu uskunaning rusumi va ishlab chiqarilgan zavodi yoziladi. Masalan: Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya

Ishning bajarilishi:
Bir modeli oqimning ketma-ketlik jadvali

4. 1. 2 - jadval

Buyum: - Oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi
(yubka va pidjak)

Bo'linmas operatsiya №	Bo'linmas operatsiya nomi	Ixtisoslik	Razvad	Vaqt sarfi, sek	Jihozlar, asbob- uskunalar
1	2	3	4	5	6
<i>Ishga tushirish:</i>					
1	Bichiqnlarni bichish sexidan qabul qilib olish	Q	2	18	Stol, aravacha
2	Bichiqnlarning sifatini tekshirish	Q	2	18	Stol
1	2	3	4	5	6
3	Bichiqnlarni maxsus jurnalga qayd qilish	Q	2	18	Stol, maxsus jurnal, ruchka
4	Bichiqnlarni ish o'rinlariga targatish	Q	2	18	Stol, aravacha
	<i>Jami:</i>			72	
<i>Buyum detallariga yelimli qotirma yopishtirish:</i>					
5	Old bo'lak o'rta qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	30	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
6	Old bo'lak yon qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
7	Orqa bo'lak yeng o'miziga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	20	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
8	Orqa bo'lak pastiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	16	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
9	Adipga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	20	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya, Vengriya

10	Ostki yoqaga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
1	2	3	4	5	6
11	Ustki yoqaga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
12	Ustki yengning pastki qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
13	Ostki yengning pastki qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	14	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	Jami:			140	
Yengga ishlov berish:					
14	Yeng tirsak chokini biriktirib tikish	M	3	36	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
15	Yeng old chokini biriktirib tikish	M	3	38	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
16	Yeng tirsak chokini yorib dazmollash	D	3	30	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
17	Yeng old chokini yorib dazmollash	D	3	33	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
18	Yengni o'ngga qaytarish	Q	2	6	
	Jami:			143	
Yoqaga ishlov berish:					
19	Ostki yoqa qismlarini biriktirib tikish	M	3	24	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
20	Ostki yoqa chokini yorib dazmollash	D	3	60	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
21	Yoqani biriktirish o'rnini belgilash	Q	2	10	Bo'r, andaza
22	Ostki yoqa bilan ustki yoqani	M	3	62	DDL-8100e -sinf,

	biriktirib tikish				Juki, Yaponiya
23	Yoqani o'ngga qaytarib, burchaklarini to'g'rilash va burchakning uchlarini kertiklash	Q	2	8	Kaychi, maxsus moslama
1	2	3	4	5	6
24	Tayyor yoqani dazmollash	D	3	44	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	Jami:			208	
Adipga ishlov berish:					
25	Adip qismlarini biriktirib tikish	M	3	24	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
26	Adip chokini yorib dazmollash	D	3	30	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
27	Orqa bo'yin ko'rinmasiga adipni biriktirib tikish	M	3	24	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
	Jami:			78	
Old bo'lakka ishlov berish:					
28	Old bo'lak relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	72	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
29	Old bo'lak relyef qirqimlarini dazmollash	D	3	72	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	Jami:			144	
Orqa bo'lakka ishlov berish:					
30	Orqa bo'lak relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	69	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
31	Orqa bo'lak relyef qirqimlarini dazmollash	D	3	69	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	Jami:			138	
Pidjak astariga ishlov berish:					
32	Astar orqa bo'lagining relyef	M	3	40	DDL-5600 NL-7-

	qirqimlarini biriktirib tikish				sinf, Juki, Yaponiya
33	Astar orqa bo'lagining yoqa o'miziga ilgak tasmasini biriktirib tikish	M	3	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
34	Korxona yorlig'ini kesish	Q	2	4	Qaychi
35	Nazorat taloni kesish	Q	2	4	Qaychi
36	Korxona yorlig'ini astarga biriktirib tikish	M	3	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
1	2	3	4	5	6
37	Astar old bo'lagining relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	40	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
38	Astar yelka qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	20	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
39	Astar yon qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	38	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
40	Astar yengining old qirqimlarini pastidan joy qoldirib biriktirib tikish	M	3	36	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
41	Astar yengining tirsak qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	34	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
42	Astar yengini yeng o'miziga o'tkazish	M	3	50	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
43	Tayyor astarni dazmollash	D	3	70	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	<i>Jami:</i>			356	
	<i>Pidjakni tikib-ug'ish:</i>				
44	Tayyorlov bo'limida ishlov berilgan detallarni	Q	2	10	aravacha

	komplektlab, tikib yig'ish bo'limiga yuborish				
45	Old va orqa bo'lak yelka choklarini biriktirib tikish	M	3	10	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
46	Yelka choklarini yorib dazmollash	D	3	20	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
47	Old va orqa bo'lak yon choklarini biriktirib tikish	M	3	58	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
48	Yon choklarini yorib dazmollash	D	3	50	CS - 392 -sinf Pannoniya, Vengriya
49	Bortga adipni biriktirib tikish	M	3	40	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
50	Yoqani yoqa o'miziga va adipni yoqaga biriktirib tikish	M	3	20	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
51	Yoqa burchaklarini to'g'rilab, kertiklash	Q	3	12	Qaychi
1	2	3	4	5	6
52	Yoqani yoqa o'miziga va adipning yoqaga biriktirilgan chokini dazmollash	D	3	62	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
53	Pidjak pastki qismining buklanish joyini belgilash	Q	3	10	andaza
54	Yengni yeng o'miziga o'tkazish	MM	5	142	DP-2100SZ -sinf, Juki, Yaponiya
55	Yeng o'mizini dazmollash	D	3	78	CS - 392 -sinf Pannoniya, Vengriya
56	Yyelka tagligini biriktirib tikish	M	3	72	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
57	Old bo'lakni, orqa bo'lakni, bortni, yoqani va buyumning pastki qismini dazmollash	D	3	73	CS - 392 -sinf Pannoniya, Vengriya
58	Bortni ortiqcha iplardan tozalash	Q	3	4	Qaychi

59	Buyum astarini buyumga moslab, tekisligini aniqlash	Q	3	8	
60	Buyum astarini buyumga bort va yoqa bo'ylab biriktirish	M	3	40	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
61	Astarning biriktirilgan chokiga ostki yoqani puxtalash	M	3	14	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
62	Yengni chapga qaytarish	Q	2	6	
63	Astar yengini yeng uchiga biriktirib tikish	M	3	38	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
64	Yeng uchi chok haqini old va tirsak chokiga puxtalash	M	3	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
65	Astar yeng o'mizini avra yeng o'miziga puxtalash	M	3	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
66	Pidjakning pastki qismiga astar pastki qismini biriktirib tikish	M	3	60	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
67	Astar yon qirqimlarini avra yon qirqimlariga puxtalash	M	3	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
68	Astar orqa bo'lagi relyef chokidagi teshikni tikish	M	3	12	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
69	Pidjakni o'ngga qaytarish	Q	2	6	
1	2	3	4	5	6
70	Yeng astarining old qirqimi teshigini tikish	M	3	10	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
71	Bort ziylari, bort qaytarmasi ziylari va yoqa bo'ylab 0,5 sm kenglikda bezak choki berish	M	3	58	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
	Jami:			943	
	Pidjakni namlab – isitib ishlov berish:				
72	Pidjakni namlab – isitib ishlov	BM	5	72	MG-321 -sinf ,


	berish				Battistella ZEUSIA, Italiya
73	Old bo'lak o'ng qismiga izma joyini belgilash	Q	2	14	Bo'r, andaza
74	Old bo'lak o'ng qismiga izma yo'rmalash	Ya/A	5	56	LBH-780U -sinf, Juki, Yaponiya
1	2	3	4	5	6
75	Old bo'lak chap qismiga tugma joyini belgilash	Q	2	10	Bo'r, andaza
76	Old bo'lak chap qismiga tugma tikish	Ya/A	5	50	MB-1373 -sinf, Juki, Yaponiya
77	Buyumning ehtiyot bo'lagiga tugma tikish	Ya/A	5	12	MB-1373 -sinf, Juki, Yaponiya
	Jami:			214	
Yubkaning mayda detallariga ishlov berish:					
78	Yubka belbog'iga yelimli qotirma yopishtirish	D	3	69	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya
79	Yubka old bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	2	10	Bo'r
80	Yubka old bo'lagi vitochkalarini tikish	M	3	25	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
81	Yubka old bo'lagining vitochkalarini dazmollash	D	3	35	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
82	Yubka orqa bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	3	10	Bo'r
83	Yubka orqa bo'lagi vitochkalarini tikish	M	3	25	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
84	Yubka orqa bo'lagining vitochkalarini dazmollash	D	3	34	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vriya
	Jami:			208	
1	2	3	4	5	6
Yubka belbog'iga ishlov berish:					
85	Belbog' uchlarini biriktirib tikish	M	3	50	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
86	Belbog' burchaklarini kertiklab, o'ngga qaytarish	Q	2	20	Qaychi

87	Belbog'ni ikki buklab dazmollash	D	3	72	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	<i>Jami:</i>			142	
<i>Yubka astariga ishlov berish:</i>					
88	Yubka astarining old bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	2	10	Bo'r, andaza
89	Yubka astari old bo'lagining vitochkalarini tikish	M	3	34	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
90	Yubka astarining orqa bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	2	10	Bo'r, andaza
91	Yubka astari orqa bo'lagining vitochkalarini tikish	M	3	34	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
92	Yubka astarining yon choklarini biriktirib tikish	M	3	54	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
1	2	3	4	5	6
93	Yubka astarining taqilma uchun chok haqini bostirib tikish	M	3	20	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
94	Yubka astari etagining buklash chok haqini bostirib tikish	M	3	54	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
95	Yubka astarini dazmollash	D	3	69	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	<i>Jami:</i>			285	
<i>Yubkani tikib-yig'ish:</i>					
96	Yubkaning yon qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	72	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
97	Yubkaning yon qirqimlarini yorib dazmollash, taqilma chok haqini bostirib dazmollash	D	3	89	CS - 392 -sinf, Pannoniya, Vengriya

1	2	3	4	5	6
98	Yubka yon chokiga chaqmoq tasmasini biriktirib tikish	M	3	36	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
99	Yubkaning yuqori ziyiga belbog'ni bostirib tikish	M	3	36	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
100	Belbog'ga astarning yuqori qismi ziyini biriktirib tikish	M	3	10	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
1	2	3	4	5	6
101	Yubka etagini buklab tikish	M	3	62	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
	Jami:			305	
Yubkani pardoqlash:					
102	Yubka belbog'iga izma joyini belgilash	Q	2	20	Bo'r, andaza
103	Yubka belbog'iga izma yo'rmalash	Ya/A	5	52	LBH-780U -sinf, Juki, Yaponiya
104	Yubkaga namlab – isitib ishlov berish	P	5	72	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
105	Yubka belbog'iga tugma joyini belgilash	Q	2	20	Bo'r, andaza
106	Yubka belbog'iga tugma tikish	Ya/A	5	52	MB-1373 -sinf, Juki, Yaponiya
107	Buyumni ip, dog'lardan tozalash va tugmalarini qadash	Q	2	18	Qaycha, cho'tka
108	Buyumning tugmalarini qadash va korxona yorlig'ini ilish	Q	2	18	Korxona yorlig'i
109	Buyumning marshrut varaqasini to'ldirish	Q	2	18	Marshrut varaqasi
110	Buyumni tayyor buyumlar omboriga yuborish	Q	2	20	Aravacha
	Jami:			290	
	Umumiy:			3666	

Nazorat savollar:

1. Bo'linmas operatsiya deb nimaga aytiladi?
2. Buyumning ketma-ketlikini tuzganda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Ketma-ketlik jadvaliga nimalar kiradi?
4. Bo'linmas operatsiyalar vaqti qanday hisoblanadi?
5. Chizmada yorib dazmollangan chokni aniqlang?



Mavzu 4.2. Ko'p modeli texnologik oqimlar uchun texnologik ketma-ketlik tuzish

Ishdan maqsad:

Ko'p modeli texnologik oqimlar uchun ishlov berish ketma-ketlikini tuzishni o'rganish.

Vaqt sarfini, mutaxassislik va razryadlarni tanlashni o'rganish. Jihoz va asboblarni to'g'ri tanlash.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Bo'linmas operatsiyaga tushuncha berish.
2. Bir va ko'p modeli texnologik oqimlar uchun texnologik ketma-ketlik tuzish.
3. Texnologik ketma-ketlikning tuzilishiga tavsif.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Kalkulyator
3. Qalam-oddiy qora
4. O'chirg'ich

Adabiyot: [1,149-153-bb.; 2,75-78-bb.; 7,127-b; 8,258-261-bb.;13,149-153-bb; 17, 14-15-bb., 29]

Uslubiy qo'llanma

Ish birligining vaqti loyiha qilinayotgan jarayon va kiyim fasonlariga unchalik to'g'ri kelmaydigan operatsiya vaqtiga asosan belgilangan bo'lsa, uni texnologik jihatidan bo'linmaydigan ayrim operatsiyalar bo'yicha aniqlab chiqish kerak. Baxyaqatorlarga va baxya chastotasiga, mashinalarning tezligi va ish rejimiga, oqimlarning quvvati va turlariga, fabrikada erishilgan ishlab chiqarish unumdorligi darajasi va hokazoga bog'liq bo'lgan mavjud operatsiya vaqtlarga nisbatan tikishga qabul qilingan kiyimlarda va ularning texnologik jarayonlarida farq bo'lgan taqdirdagina bunday aniqlashlar kerak bo'ladi.

Agar loyiha qilinayotgan jarayondagi operatsiyada fabrikada mavjud bo'lgan vaqt normalariga nisbatan bir vaqtda baxyaqator yirikligiga ham, baxya chastotasiga va mashinalarning aylanish tezligiga ham bog'liq bo'lgan farqlar bo'lsa, ish birligi vaqtiga quyidagi formula bilan aniqlik kiritiladi:

$$t_{op} = \frac{t_e \cdot m_e 60}{T_{ya} + T_{e2}} + \frac{t_{ya} m_{ya} 60}{n_e n_{ya}}$$

bu yerda:

t_{ya} – ish birligining yangi, aniqlangan vaqti, sek;

t_e – ish birligining avvalgi mavjud vaqt normalariga asosan belgilangan vaqti, sek;

l – operatsiyadagi baxyaqatorning avvalgi uzunligi, sm;

m_e – baxyalarning 1 sm baxyaqatordagi avvalgi soni;

m_{ya} – baxyalarning 1 sm baxyaqatordagi yangi soni;

n_e – mashinalarning salt yurishidagi avvalgi tezligi;

n_{ya} – mashinalarning salt yurishidagi yangi aylanish tezligi.

4. 2. 1 -jadval

Ko'p modeli oqimning texnologik ketma-ketliki

Buyum: - (Uchta model A, B, V)

Bo'linmas operatsiya №	Bo'linmas operatsiya nomi	Ixtisoslik	Razryad	Vaqt sarfi, sek					Jihozlar, asbob- uskunalar
				Modellar			Umumiy	O'rtacha	
				A	B	V			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	Jami:								

bu yerda:

Jadvalning 1- ustunida - bo'linmas operatsiyalarning ketma-ketlik raqami yoziladi;

Jadvalning 2 - ustunida - bo'linmas operatsiyalarning nomlanishi;

Jadvalning 3 - ustunida - mutaxassislik-bajariladigan asbob-uskunaning bosh harfi yoziladi:

M - mashina (universal mashinada bajariladigan ishlar. Masalan: bostirib tikish, biriktirib tikish, bezak choki berish...)

MM - maxsus mashinada bajariladigan ishlar. Masalan: yengni yeng o'miziga o'tkazish...;

A - avtomata bajariladigan ishlar. Masalan: izma yo'rmalash, tugma tikish...;

YaA - yarim avtomatda bajariladigan ishlar. Masalan: izma yo'rmalash, tugma tikish...;

D - dazmolda bajariladigan ishlar. Masalan: yorib dazmollash, bostirib dazmollash, namlab-isitib ishlov berish...;

P - pressda bajariladigan ishlar. Masalan: yelimli qotirma yopishtirish, namlab-isitib ishlov berish...;

FP - falspressda bajariladigan ishlar. Yoqaga, manjetga yelimli qotirma yopishtirish, shakl berish, namlab-isitib ishlov berish...;

BM - bug' manekenda bajariladigan ishlar. Tayyor buyumning nuqsonlarini yo'qotish, namlab-isitib ishlov berib pardozlash;

Q - qo'lda bajariladigan ishlar. Masalan: qabul qilib olish, sifatini tekshirish, qayd qilish, tarqatish, o'ngga qaytarish, to'g'rilash, kertiklash, kesish, yuborish, belgilash...

Jadvalning 4 - ustunida – ishning razryadi ishning murakkabligiga qarab 1 - razryaddan 5 - razryadgacha yoziladi.

Jadvalning 5 - ustunida – Birinchi A modelga tegishli bo'lgan bo'linmas operatsiyalarning vaqt sarfi tipik normativ hujjatdan olinadi yoki xronometraj usuldan foydalanib 1 sm 1 sek deb olinadi.

Jadvalning 6 - ustunida – Ikkinchi B modelga tegishli bo'lgan bo'linmas operatsiyalarning vaqt sarfi tipik normativ hujjatdan olinadi yoki xronometraj usuldan foydalanib 1 sm 1 sek deb olinadi.

Jadvalning 7 - ustunida – Uchinchi V modelga tegishli bo'lgan bo'linmas operatsiyalarning vaqt sarfi tipik normativ hujjatdan olinadi yoki xronometraj usuldan foydalanib 1 sm 1 sek deb olinadi.

Jadvalning 8 - ustunida – Uchta A, B, V modellarga tegishli bo'lgan bo'linmas operatsiyalarning umumiy vaqt sarfi:

$$t_{\text{umumiy}} = t_A + t_B + t_V, \text{sek};$$

bu yerda:

t_A – birinchi model bo'linmas operatsiyalarining vaqt sarfi;

t_B – ikkinchi model bo'linmas operatsiyalarining vaqt sarfi;

t_V – uchinchi model bo'linmas operatsiyalarining vaqt sarfi.

Jadvalning 9 - ustunida – Uchta A, B, V modellarga tegishli bo'lgan bo'linmas operatsiyalarning o'rtacha vaqt sarfi:

$$t_{\text{ort}} = \frac{t_A + t_B + t_V}{m};$$

bu yerda:

t_A – birinchi model bo'linmas operatsiyalarining vaqt sarfi;

t_B – ikkinchi model bo'linmas operatsiyalarining vaqt sarfi;

t_V – uchinchi model bo'linmas operatsiyalarining vaqt sarfi;

m – modellar soni.

Jadvalning 10 - ustunida – bo'linmas operatsiya qaysi asbob-uskunada ishlov berilsa, shu uskunaning rusumi va ishlab chiqarilgan zavodi yoziladi. Masalan: Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya

Texnologik jihatdan bo'linmaydigan operatsiyalarning nomlari hamma fasonlar uchun yozib chiqiladi. Operatsiyalarni bajarish uchun ajratilgan vaqtni har bitta fason uchun operatsiyaning mehnat sarfiga bog'liq ravishda yozib chiqiladi; agar bironta fasonda qaysidir operatsiya yo'q bo'lsa, jadvalning tegishli xonasiga shu operatsiya uchun ajratiladigan vaqt yozilmaydi. Har qaysi fasonda kiyimning detallari va tugunlari bo'yicha biriktirish va pardozlash operatsiyalari vaqtining yig'indisi, shuningdek, har qaysi fasondagi bitta kiyimni ishlab chiqarish uchun ajratilgan umumiy vaqt yig'indisi hisoblab chiqiladi.

Ishning bajarilishi:

4. 2. 2 - jadval

Ko'p modeli oqimning texnologik ketma-ketligi

Buyum: - Oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi (yubka va pidjak) (Uchta model A, B, V)

operatsiya	Bo'linmas operatsiya nomi	Ixtisoslik	Razryad	Vaqt sarfi, sek					Jihozlar, asbob-uskunalar
				Modellar			Umumiy	O'rtacha	
				A	B	V			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	Ishga tushirish:								
1	Bichiqnlarni bichish sexidan qabul qilib olish	Q	2	18	18	18	54	18	Stol, aravacha
2	Bichiqnlarning sifatini tekshirish	Q	2	18	18	18	54	18	Stol
3	Bichiqnlarni maxsus jurnalga qayd qilish	Q	2	18	18	18	54	18	Stol, maxsus jurnal, ruchka
4	Bichiqnlarni ish o'rinlariga tarqatish	Q	2	18	18	18	54	18	Stol, aravacha
	Jami:			72	72	72	216	72	
	Buyum detallariga yelimli qotirma yopishtirish:								
5	Old bo'lak o'rta qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	30	30	30	90	30	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya Vengriya
6	Old bo'lak yon qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	10	10	30	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya Vengriya
7	Orqa bo'lak yeng o'miziga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	20	20	20	60	20	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
8	Orqa bo'lak pastiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	16	16	16	48	16	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
9	Adipga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	20	20	20	60	20	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
10	Ostki yoqaga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	10	10	30	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
11	Ustki yoqaga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	10	10	30	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
12	Ustki yengning pastki qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	10	10	10	30	10	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
13	Ostki yengning pastki qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	14	14	14	42	14	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
14	Qopqoqga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	-	10	-	10	3,3 3	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
15	Qoplama cho'ntakning ustki qismiga yelimli qotirma yopishtirish	P	5	-	-	10	10	3,3 3	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya, Vengriya
	Jami:			140	150	150	440	146, 66	
Yengga ishlov berish:									
16	Yeng tirsak chokini biriktirib tikish	M	3	36	36	36	108	36	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
17	Yeng old chokini biriktirib tikish	M	3	38	38	38	114	38	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
18	Yeng tirsak chokini yorib dazmollash	D	3	30	30	30	90	30	CS - 392 - sinf, Pannoniya Vengriya
19	Yeng old chokini yorib dazmollash	D	3	33	33	33	99	33	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
20	Yengni o'ngga qaytarish	Q	2	6	6	6	18	6	
	<i>Jami:</i>			143	143	143	429	143	
<i>Yoqaga ishlov berish:</i>									
21	Ostki yoqa qismlarini biriktirib tikish	M	3	24	24	24	72	24	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
22	Ostki yoqa chokini yorib dazmollash	D	3	60	60	60	180	60	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
23	Yoqani biriktirish o'rnini belgilash	Q	2	10	10	10	30	10	Bo'r, andaza
24	Ostki yoqa bilan ustki yoqani biriktirib tikish	M	3	62	62	62	186	62	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
25	Yoqani o'ngga qaytarib, burchaklarini to'g'rilash va burchakning uchlarini kertiklash	Q	2	8	8	8	24	8	Kaychi, maxsus moslama
26	Tayyor yoqani dazmollash	D	3	44	44	44	132	44	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
	<i>Jami:</i>			208	208	208	624	208	
<i>Adipga ishlov berish:</i>									
27	Adip qismlarini biriktirib tikish	M	3	24	24	24	72	24	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
28	Adip chokini yorib dazmollash	D	3	30	30	30	90	30	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
29	Orqa bo'yin ko'rinmasiga adipni biriktirib tikish	M	3	24	24	24	72	24	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
	<i>Jami:</i>			78	78	78	234	78	
<i>Old bo'lakka ishlov berish:</i>									
30	Old bo'lak relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	72	70	69	211	70,3	DDL- 8100e - sinf, Juki, Yaponiya
31	Old bo'lak relyef qirqimlarini dazmollash	D	3	72	70	69	211	70,3	CS - 392 - sinf, Pannoniya , Vengriya
	<i>Jami:</i>			144	140	138	422	140,7	
<i>Orqa bo'lakka ishlov berish:</i>									
32	Orqa bo'lak o'rta chokini biriktirib tikish	M	3	-	-	72	72	24	DDL- 8100e - sinf, Juki, Yaponiya
33	Orqa bo'lak o'rta chokini yorib dazmollash	D	3	-	-	69	69	23	CS - 392 - sinf, Pannoniya , Vengriya
34	Orqa bo'lak relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	69	69	69	207	69	DDL- 8100e - sinf, Juki, Yaponiya
35	Orqa bo'lak relyef qirqimlarini dazmollash	D	3	69	69	61	199	66,33	CS - 392 - sinf, Pannoniya , Vengriya
	<i>Jami:</i>			138	138	271	547	182,3	
<i>Qoplama cho'ntakka ishlov berish va old bo'lakka o'rnatish:</i>									
36	Qoplama cho'ntak buklash haqining ustki ziylariga astarini biriktirib tikish	M	3	-	-	70	70	23,3	DDL- 8100e - sinf, Juki, Yaponiya
37	Qoplama cho'ntak va uning astarini dazmollash	D	3	-	-	69	69	23	CS - 392 - sinf, Pannoniya , Vengriya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
38	Qoplama cho'ntak va uning astari ziylarini 0,7 sm tugallanmagan teshik qo'yib ag'darma chok bilan tikish	M	3	-	-	22	22	7,33	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
39	Qoplama cho'ntak burchaklarini kertiklash	Q	2	-	-	6	6	2	Qaychi
40	Cho'ntakni tugallanmagan teshik orqali o'ngga ag'darib, burchaklarini to'g'rilash	Q	2	-	-	6	6	2	Maxsus moslama
41	Cho'ntak ziylariga 0,2-0,3 sm kant hosil qilib dazmollash	D	3	-	-	10	10	3,33	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
42	Old bo'lakka qoplama cho'ntak joyini belgilash	Q	2	-	-	33	33	11	Andaza, bo'r
43	Old bo'lakka qoplama cho'ntakni bostirib tikish	M	3	-	-	104	104	34,66	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
	<i>Jami:</i>					320	320	106,7	
	<i>Qoplama qirgma yon cho'ntakka ishlov berish va old bo'lakka o'rnatish:</i>								
44	Qopqoqni astari bilan ag'darma chok bilan tikish	M	3	-	50	-	50	16,6	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
45	Qopqoq burchaklarini kertiklab, o'ngga ag'darish va qopqoqni to'g'rilash	Q	2	-	21	-	21	7	Maxsus moslama
46	Qopqoqni dazmollash	D	3	-	69	-	69	23	CS - 392 - sinf, Pannoniya
47	Qopqoq ziylariga 0,5 sm kenglikda bezak choki berish	M	3	-	70	-	70	23,33	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
48	Old bo'lakka qopqoqli qirqma cho'ntak o'rmini belgilash	Q	2	-	8	-	8	2,66	Andaza, bo'r
49	Mag'izni qopqoq bilan birgalikda old bo'lakka tikish	M	3	-	53	-	53	17,66	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
50	Cho'ntak og'zini oxirigacha kesish	Q	2	-	20	-	20	6,66	Qaychi
51	Cho'ntakni teskariga ag'darish	Q	2	-	20	-	20	6,66	Qo'l ishi
52	Cho'ntak chetlarini puxtalash	M	3	-	52	-	52	17,33	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
53	Ko'rinmani cho'ntak xaltaga bostirib tikish	M	3	-	18	-	18	6	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
54	Cho'ntak xaltani ko'rinma bilan birgalikda qopqoq chokiga biriktirib tikish	M	3	-	18	-	18	6	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
55	Cho'ntak xaltani biriktirib tikish	M	3	-	36	-	36	12	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
56	Yon cho'ntakni dazmollash	D	3	-	12	-	12	4	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
	<i>Jami:</i>			-	447	-	447	149	
<i>Pidjak astariğa ishlov berish:</i>									
57	Astar orqa bo'lagining relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	40	40	40	120	40	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
58	Astar orqa bo'lagining yoqa o'miziga ilgak tasmasini biriktirib tikish	M	3	10	10	10	30	10	DDL-5600 NL-7 -sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
59	Korxona yorlig'ini kesish	Q	2	4	4	4	12	4	Qaychi
60	Nazorat taloni kesish	Q	2	4	4	4	12	4	Qaychi
61	Korxona yorlig'ini astarga biriktirib tikish	M	3	10	10	10	30	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
62	Astar old bo'lagining relyef qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	40	40	40	120	40	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
63	Astar yelka qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	20	20	20	60	20	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
64	Astar yon qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	38	38	38	114	38	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
65	Astar yengining old qirqimlarini pastidan joy qoldirib biriktirib tikish	M	3	36	36	36	108	36	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
66	Astar yengining tirsak qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	34	34	34	102	34	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
67	Astar yengini yeng o'miziga o'tkazish	M	3	50	50	50	150	50	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
68	Tayyor astarni dazmollash	D	3	70	64	70	204	68	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
	Jami:			356	350	356	106 2	354	
	Pidjakni tikib-yig'ish:								
69	Tayyorlov bo'limida ishlov berilgan detallarni komplektlab, tikib yig'ish bo'limiga	Q	2	10	8	8	26	8,66	aravacha

	yuborish								
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
70	Old va orqa bo'lak yelka choklarini biriktirib tikish	M	3	10	10	10	30	10	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
71	Yelka choklarini yorib dazmollash	D	3	20	20	20	60	20	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
72	Old va orqa bo'lak yon choklarini biriktirib tikish	M	3	58	58	58	174	58	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
73	Yon choklarini yorib dazmollash	D	3	50	47	47	144	48	CS - 392 - sinf Pannoniya, Vengriya
74	Bortga adipni biriktirib tikish	M	3	40	38	38	116	38,6 6	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
75	Yoqani yoqa o'miziga va adipni yoqaga biriktirib tikish	M	3	20	20	20	60	20	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
76	Yoqa burchaklarini to'g'rilab, kertiklash	Q	3	12	12	12	36	12	qaychi
77	Yoqani yoqa o'miziga va adipning yoqaga biriktirilgan chokini dazmollash	D	3	62	60	60	182	60,6 6	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
78	Pidjak pastki qismining buklanish joyini belgilash	Q	3	10	10	10	30	10	andaza
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
79	Yengni yeng o'miziga o'tkazish	MM	5	142	142	142	426	142	DP-2100SZ -sinf, Juki, Yaponiya
80	Yeng o'mizini dazmollash	D	3	78	78	78	234	78	CS - 392 - sinf Pannoniya, Vengriya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
81	Yelka tagligini biriktirib tikish	M	3	72	72	72	216	62	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
82	Old bo'lakni, orqa bo'lakni, bortni, yoqani va buyumning pastki qismini dazmollash	D	3	73	72	72	217	72,3 3	CS - 392 - sinf Pannoniya, Vengriya
83	Bortni ortiqcha iplardan tozalash	Q	3	4	4	4	12	4	qaychi
84	Buyum astarini buyumga moslab, tekisligini aniqlash	Q	3	8	8	8	24	8	
85	Buyum astarini buyumga bort va yoqa bo'ylab biriktirish	M	3	40	40	40	120	40	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
86	Astarning biriktirilgan chokiga ostki yoqani puxtalash	M	3	14	14	14	42	14	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
87	Yengni chapga qaytarish	Q	2	6	6	6	18	6	
88	Astar yengini yeng uchiga biriktirib tikish	M	3	38	38	38	114	38	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki
89	Yeng uchi chok haqini old va tirsak chokiga puxtalash	M	3	10	10	10	30	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
90	Astar yeng o'mizini avra yeng o'miziga puxtalash	M	3	10	10	10	30	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
91	Pidjakning pastki qismiga astar pastki qismini biriktirib tikish	M	3	60	60	58	178	59	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
92	Astar yon qirqimlarini avra yon qirqimlariga puxtalash	M	3	10	10	10	30	10	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
93	Astar orqa bo'lagi relyef chokidagi teshikni tikish	M	3	12	12	12	36	12	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
94	Pidjakni o'ngga qaytarish	Q	2	6	6	6	18	6	
95	Yeng astarining old qirqimi teshigini tikish	M	3	10	10	10	30	10	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
96	Bort ziylari, bort qaytarmasi ziylari va yoqa bo'ylab 0,5 sm kenglikda bezak choki berish	M	3	58	54	54	166	55,3 3	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
	<i>Jami:</i>			943	929	927	279 9	933	
<i>Pidjakni pardozlash:</i>									
97	Old bo'lak o'ng qismiga izma joyini belgilash	Q	2	14	16	16	46	15,33	Bo'r, andaza
98	Old bo'lak o'ng qismiga izma yo'rmalash	Ya/A	5	56	60	60	176	58,66	LBH-780U -sinf, Juki, Yaponiya
99	Pidjakni namlab - isitib ishlov berish	BM	5	72	71	70	213	71	MG-321 -sinf, Battistella ZEUSIA, Italiya
100	Old bo'lak chap qismiga tugma joyini belgilash	Q	2	10	12	12	34	11,33	Bo'r, andaza
101	Old bo'lak chap qismiga tugma tikish	Ya/A	5	50	52	52	154	51,33	MB-1373 -sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
102	Buyumning ehtiyot bo'lagiga tugma tikish	Ya/A	5	12	12	12	36	12	MB-1373 - sinf, Juki, Yaponiya
	Jami:			214	223	222	659	219, 67	
Yubkaning mayda detallariga ishlov berish:									
103	Yubka belbog'iga yelimli qotirma yopishtirish	D	3	69	69	69	207	69	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya Vengriya
104	Ort bo'lak shlitsa qismiga qotirma yopishtirish	D	3	-	8	8	16	5,33	Cs-394 KE+ 1392 - sinf, Pannoniya Vengriya
105	Yubka old bo'lagiga vitochkalar o'rmini belgilash	Q	2	10	8	8	26	8,66	Bo'r
106	Yubka old bo'lagi vitochkalarini tikish	M	3	25	24	24	73	24,33	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
107	Yubka old bo'lagining vitochkalarini dazmollash	D	3	35	35	35	105	35	CS - 392 - sinf, Pannoniya Vengriya
108	Yubka orqa bo'lak o'rta chokini biriktirib tikish	M	3	-	14	14	28	9,33	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya
109	Yubka orqa bo'lak o'rta chokini yorib dazmollash	D	3	-	81	81	163	54	CS - 392 - sinf, Pannoniya , Vengriya
110	Kesim chok haqqini ort bo'lak chap tomonga yotqizib dazmollash	D	3	-	30	30	60	20	CS - 392 - sinf, Pannoniya , Vengriya
111	Ort bo'lak o'nggi tomonidan shlitsalarni puxtalash	M	3	-	8	8	16	5,33	DDL-8100e - sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
112	Yubka orqa bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	3	10	8	8	26	8,66	Bo'r
113	Yubka orqa bo'lagi vitochkalarini tikish	M	3	25	24	24	73	24,33	DDL-8100e-sinf, Juki, Yaponiya
114	Yubka orqa bo'lagining vitochkalarini dazmollash	D	3	34	34	34	102	34	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
Jami:				208	343	343	894	298	
Yubka belbog'iga ishlov berish:									
115	Belbog' uchlarini birlashtirib tikish	M	3	50	50	50	150	50	DDL-8100e-sinf, Juki, Yaponiya
116	Belbog' burchaklarini kartaqlab, o'ngga qaytarish	Q	2	20	20	20	60	20	Qaychi
117	Belbog'ni ikki buklab dazmollash	D	3	72	72	72	216	72	CS - 392 - sinf, Pannoniya, Vengriya
Jami:				142	142	142	426	142	
Yubkaning astariga ishlov berish:									
118	Yubka astarining old bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	2	10	10	-	20	6,66	Bo'r, andaza
119	Yubka astari old bo'lagining vitochkalarini tikish	M	3	34	34	-	68	22,66	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki
120	Yubka astarining orqa bo'lagiga vitochkalar o'rnini belgilash	Q	2	10	10	-	20	6,66	Bo'r, andaza
121	Yubka astari orqa bo'lagining vitochkalarini tikish	M	3	34	34	-	68	22,66	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
122	Yubka astarining yon choklarini biriktirib tikish	M	3	54	54	-	108	36	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
123	Yubka astarining taqilma uchun chok haqini bostirib tikish	M	3	20	20	-	40	13,33	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
124	Yubka astari etagining buklash chok haqini bostirib tikish	M	3	54	54	-	108	36	DDL-5600 NL-7-sinf, Juki, Yaponiya
125	Yubka astarini dazmollash	D	3	69	69	-	138	46,33	CS - 392 -sinf, Pannoniy a, Vengriya
	Jami:			285	285	-	570	190	
	Yubkani tikib- yig'ish:								
126	Yubkaning yon qirqimlarini biriktirib tikish	M	3	72	72	72	216	72	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
127	Yubkaning yon qirqimlarini yorib dazmollash, taqilma chok haqini bostirib dazmollash	D	3	89	89	137	315	105	CS - 392 -sinf, Pannoniy a, Vengriya
128	Yubka yon chokiga chaqmoq tasmasini biriktirib tikish	M	3	36	36	36	108	36	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
129	Yubkaning yuqori ziyiga belbog'ni bostirib tikish	M	3	36	36	36	108	36	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
130	Belbog'ga astarning yuqori qismi ziyini biriktirib tikish	M	3	10	10	-	20	6,66	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya

131	Yubka etagini buklab tikish	M	3	62	62	62	186	62	DDL-8100e -sinf, Juki, Yaponiya
	Jami:			305	305	343	953	317,66	
	Yubkani pardoqlash:								
132	Yubka belbog'iga izma joyini belgilash	Q	2	20	20	20	60	20	Bo'r, andaza
133	Yubka belbog'iga izma yo'rmalash	Ya/A	5	52	52	52	156	52	LBH-780U -sinf, Juki, Yaponiya
134	Yubkani namlab – isitib ishlov berish	P	5	72	72	69	216	72	Cs-394 KE+ 1392 -sinf, Pannoniya
135	Yubka belbog'iga tugma joyini belgilash	Q	2	20	20	20	60	20	Bo'r, andaza
136	Yubka belbog'iga tugma tikish	Ya/A	5	52	52	52	156	52	MB-1373 -sinf, Juki, Yaponiya
137	Buyumni ip, dog'lardan tozalash va tugmalarini qadash	Q	2	18	18	18	54	18	Qaycha, cho'tka
138	Buyumning tugmalarini qadash va korxona yorlig'ini ilish	Q	2	18	18	18	54	18	Korxona yorlig'i
139	Buyumning marshrut varaqasini to'ldirish	Q	2	18	18	18	54	18	Marshrut varaqasi
140	Buyumni tayyor buyumlar omboriga yuborish	Q	2	20	20	20	60	20	Aravacha
	Jami:			290	290	287	870	290	
	Umumiy:				4243	4000	11909	3969,66	

Nazorat savollar:

1. Ko'p fasonli ketma-ketlik jadvaliga nimalar kiradi?
2. Ko'p fasonli bo'linmas operatsiyalar vaqti qanday hisoblanadi?
3. Ko'p fasonli ketma-ketlik jadvali qanday tuziladi?
4. Tashkiliy operatsiya deb nimaga aytiladi?

Mavzu 4.3. Bo'linmas operatsiyalarning vaqt sarflarini tanlash va hisoblash

Ishdan maqsad:

Bir modeli va ko'p modeli texnologik oqimlar ketma-ketliki uchun vaqt sarfini, mutaxassislik va razryadlarni hamda jihoz va asboblarni to'g'ri tanlash.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Vaqt sarfini tanlash yoki hisoblashni o'rganish.
2. Mutaxassislik va razryadni ma'lumotnoma (spravochnik) asosida belgilashni o'rganish.

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Kalkulyator
3. Qalam-oddiiy qora
4. O'chirg'ich

Adabiyot: [1,149-153-bb.; 2,75-78-bb.; 7,127-b; 8,258-261-bb.;13,149-153-bb; 17, 14-15-bb., 29]

Uslubiy qo'llanma

Muayyan operatsiyani bajarish uchun vaqtning tezligi vaqtning sanoat standartlariga yoki boshqa ma'lumotlarga

asoslangan adabiyotlarga muvofiq belgilanadi (ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha namunaviy texnik hujjatlar, ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnatni tashkil etish TSMITI-tikuvchilik sanoati markaziy ilmiy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanma). Ammo ko'pincha, bo'linmas operatsiyani bajarish vaqti xronometraj usuldan foydalanib normallashtirilib, belgilanadi.

Mehnat standartlariga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish xarajatlarini doimiy ravishda pasaytirish va shu asosda korxonaning rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirish zarurati bilan belgilanadi.

Nazorat savollar:

1. Texnologik oqimlarni loyihalashning birinchi bosqichi qanday ataladi?
2. Texnologik oqimning taktini hisoblash uchun tegishli ko'rsatkichlarni ayting.
3. Ko'p modeli oqimlarda chala fabrikatlarni ishga tushirish usullarini aniqlang.

Mavzu 4.4. Bo'linmas operatsiyalarning mutaxassisligi va razryadni belgilash

Ishdan maqsad:

Bo'linmas operatsiyaga tushuncha berib, mutaxassislik va razryadni ma'lumotnoma (spravochnik) asosida belgilashni o'rganish

Ishni bajarish tartibi:

Bo'linmas operatsiyaga tushuncha berib, mutaxassislik va razryadni ma'lumotnoma (spravochnik) asosida belgilash

Kerakli asbob-uskuna va jihozlar:

1. Format A4
2. Kalkulyator
3. Qalam-oddiy qora
4. O'chirg'ich

Adabiyot: [1,149-153-bb.; 2,75-78-bb.; 7,127-b; 8,258-261-bb.;13,149-153-bb.; 17, 14-15 bb., 29]

Uslubiy qo'llanma

Bu ishlab chiqarish samaradorligini to'g'ridan-to'g'ri aniqlaydigan mehnat xarajatlari bo'lib, natijalarning xarajatlarga nisbati, ish haqi miqdori va ishchilarning turmush darajasi ham ularga bog'liqdir. Ushbu ta'sir darajasi asosan mehnat me'yorlari sifati bilan belgilanadi: ishlab chiqarish birligiga tannarx qancha past bo'lsa, natijalar shunchalik yuqori bo'ladi, chunki mehnat sarfining pasayishi (ishning murakkabligi) ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishning asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun raqobat, ishlab chiqaruvchilarni narxlarni pasaytirishga majbur qilish, mahsulotlarning murakkabligini kamaytirishga qiziqish uyg'otadi.

Nazorat savollar:

1. Quvvatiga ko'ra texnologik oqimlar guruhlarini ayting.
2. To'rtinchi bosqichning vazifasini ayting.
3. Oqim takti belgilanganda oqim quvvatini hisoblash formulasini belgilang.

V. TEXNOLOGIK OQIMNING DASTLABKI HISOBI

Mavzu 5.1. Loyihalanadigan oqimning asosiy parametrlari o'rganish.

Ishdan maqsad: Loyihalanadigan texnologik oqimning dastlabki hisoblash usullarini o'rganish.

Ishni bajarish tartibi:

Texnologik oqimning dastlabki hisobini bajarishidan maqsad, kattalashtirilgan ko'rsatkichlarga asoslanib hisob-kitoblarni bajarmasdan oqim quvvatini, ishchilar sonini, oqim uzunligi, sex maydoni va sexda oqimlarni taxminan joylashtirish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

Loyihalanadigan texnologik oqimni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Buyumning texnologik ketma-ketliki.
2. Kalkulyator
3. Qalam-oddiy qora
4. O'chirg'ich
5. Format A4

Adabiyot: [1,20-21-bb.; 2, 56-6- bb.; 8, 262-267-bb.; 17, 16-18-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Texnologik oqimning dastlabki hisobini bajarishidan maqsad, kattalashtirilgan ko'rsatkichlarga asoslanib hisob-kitoblarni bajarmasdan oqim quvvatini, ishchilar sonini, oqim uzunligi, sex maydoni va sexda oqimlarni taxminan joylashtirish.

Texnologik oqimning asosiy parametrlariga quyidagilar kiradi:

K_{oq} – smenada oqim quvvati, dona/sm;

N_{ish} – ishchilar soni – bir buyumni ishlab chiqarish uchun ratsional ishchilar soni;

S_{oq} – oqim maydoni, m^2 ;

S_{sex} – tikuv sex maydoni, m^2 ;

$L_{o.uz.}$ – oqim uzunligi, m.

Texnologik oqimning qo'shimcha parametriga quyidagilar kiradi:

BC_{buyum} – bir buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;

R_{sm} – smena davomiyligi, $R_{sm} = 288000$ sek;

N_{tip} – bir ishchiga ajratilgan tipik (sanitar) maydon normasi;

$L_{i.q.}$ – ish qadami (yengil kiyimlar uchun – $1,10 \div 1,15$;
ustki kiyimlar uchun – $1,20 \div 1,25$).

Ishlab chiqarish oqimning tashkiliy shakllarini va uning turlarini ishlab chiqarish jarayonini chuqur tahlil qilish asosda tanlanadi. So'ng ishlab chiqarish oqimning parametrlari hisoblab aniqlanadi:

1. Ishlab chiqarish oqimining quvvati, - K_{oq} (dona/sm)
2. Ishlab chiqarish oqimdagi ishchilar soni, - N_{ish} (ishchi)
3. Ishlab chiqarish oqimi chizig'ining umumiy uzunligi yoki ish o'rinlarini bir tomonlama joylashtirilgandagi uzunligi, - L_{uch} (m)
4. Tikuv sex sahni, - $S_{t.s.}$ (m^2)

Ishning bajarilishi:

5. 1. 1 - jadval

Dastlabki hisoblash jadvali

Agar oqim quvvati (K _{oq}) berilgan bo'lsa:	Agarda (N _{ish}) ishchilar soni berilgan bo'lsa:	Agar (St.sex) tikuv sex maydon berilgan bo'lsa:
$\tau = \frac{R_{sm}}{K_{oq}}, \text{sek.}$	$\tau = \frac{VS_{maydon}}{N_{ish}}, \text{sek.}$	$K_{oq} = \frac{R_{sm}}{\tau}, \text{dona / sm}$
$K_{oq} = \frac{R_{sm}}{\tau}, \text{dona / sm}$	$K_{oq} = \frac{R_{sh}}{\tau}, \text{dona / sm}$	$\tau = \frac{VS_{maydon}}{N_{ish}}, \text{sek.}$
$L_{o.uz} = H_{tip} \cdot N_{isho'rti}, \text{m.}$ $N_{isho'rti} = N_{ish} * f;$	$L_{o.uz} = H_{tip} \cdot N_{isho'rti}, \text{m.}$ $N_{isho'rti} = N_{ish} * f$	$N_{ish} = \frac{Stc.}{f * H_{tip} * n}, \text{kishi}$
$S_{t.s.} = N_{ish} \cdot H_{tp} \cdot n, \text{m}^2$	$S_{t.s.} = N_{isho'rti} \cdot H_{tp} \cdot n, \text{m}^2$	$L_{oq.uz} = H_{tp} \cdot N_{isho'rti}, \text{m.}$ $N_{isho'rti} = N_{ish} * f$

Ishlab chiqarish oqimlarini tashkil qilishning shakllari asosan to'rt belgisi bilan farqlanadi:

1. Bir maromda ishlash darajasi bo'yicha.
2. Tikuv buyumlarni ishlab chiqarish oqimga tushirish bo'yicha.

3. Mahsulotni tashish usuli bo'yicha.

4. Tashkiliy operatsiyalarni vaqtini moslash usuli bo'yicha.

Ishlab chiqarish oqimning tashkiliy shakllarini va uning turlarini ishlab chiqarish jarayonini chuqur tahlil qilish asosda tanlanadi. So'ng ishlab chiqarish oqimning parametrlari xisoblab aniqlanadi:

5. Ishlab chiqarish oqimining quvvati, ya'ni ishlab chiqarish mahsulot soni – K_{oq} (dona/sm)

6. Ishlab chiqarish oqimdagi ishchilar soni-N_{ish} (ishchi)

7. Ishlab chiqarish oqimi chizig'ining umumiy uzunligi yoki ish o'rinlarini bir tomonlama joylashtirilgandagi uzunligi - L_{uz} (m)

8. Tikuv sex sahni – S_{t.sex} (m²)

5. 1. 2 - jadval

Bitta ishchiga to'g'ri keladigan sahn, m.


№	Buyum nomi	Ish chegarasi		L _{io'} (m)	K _{o'r}
		o'tirib	turib		
1.	Ich kiyim va yengil kiyim	1,35	1,5	1,1-1,5	1,1-1,5
2.	Kostyumlar	1,35	1,5	1,2-1,25	1,15-1,2
3.	Paltolar	1,35	1,5	1,25-1,3	1,2-1,25

f-ishlab chiqarish oqimining shakli, turiga, hamda assortimentga bog'liq.

5. 1. 3 - jadval

Rekvizitlarni belgilash

№	Ko'rsatkichlarning nomi	Shartli belgilar
1.	Ishlab chiqarish oqimning quvvati, ya'ni ishlab chiqarish mahsulot soni	K _{oq}
2.	Bitta buyumni tikishga sarflanadigan vaqt	V _{Sbuyum}
3.	Smena davomiyligi-28800 sek	R _{sm}
4.	Ishlab chiqarish oqimdagi ishchilar soni	N _{ish}
5.	Ishlab chiqarish oqimning ishlash maromi, ya'ni takti	r
6.	Tikuv sexining sahni	S _{sex}
7.	Ishchilarning mehnat unumdorligi	MU
8.	Bir ishchi ish joyining sanitar normasi	f
9.	Tikuv sexida ishlab chiqarish oqimlar soni	n



5. 1. 1 – rasm. Oqim uzunligi.

Nazorat savollari:

1. Ishlab chiqarish oqim shakllarining farqlanuvchi belgilari.
2. Texnologik jarayonning quvvatini hisoblash.
3. Texnologik jarayondagi ishchilar sonini hisoblash.
4. Tikuv sexi sahnini hisoblash.
5. Texnologik jarayonning ishlash maromini hisoblash.

Mavzu 5.2. Ishchilar soni berilganda oqimning dastlabki hisobi

Ishdan maqsad:

Loyihalanadigan texnologik oqimda (K_{oq}) oqim quvvati berilgan bo'lsa, texnologik oqimning dastlabki hisobini aniqlash usullarini o'rganish.

Ishni bajarish tartibi:

1. Agarda (K_{oq}) oqim quvvati berilgan bo'lsa, ishchilar (N_{ish}) sonini aniqlash.
2. Agarda (K_{oq}) oqim quvvati berilgan bo'lsa, taktini (τ) aniqlash.
3. Agarda (K_{oq}) oqim quvvati berilgan bo'lsa, oqim quvvatini (K_{oq}) aniqlash.
4. Agarda (K_{oq}) oqim quvvati berilgan bo'lsa ,sex yuzasini (S_{sex}) aniqlash.

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Buyumning texnologik ketma-ketliki.
2. Kalkulyator
3. Qalam-oddiy qora
4. O'chirg'ich
5. Format A4

Adabiyot: [1,20-21-bb.; 2, 56-61-bb.; 8, 262-267-bb.; 17, 16-18-bb.]

Uslubiy qo'llanma:

Agarda (K_{oq}) oqim quvvati berilgan bo'lsa, ishchilar sona (N_{ish}), oqim taktini - τ , oqim quvvatini - K_{oq} . va $S_{t.sex}$ - sex yuzasini aniqlash.

Ishning bajarilishi:

a) agar oqim quvvati berilgan bo'lsa, oqimning takti quyidagicha aniqlanadi:

Oqim takti— bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

$$\tau = \frac{R_{sm}}{K_{oq}}, \text{ sek};$$

$$\tau = \frac{R_{sm}}{K_{oq}} = \frac{28800}{400} = 72 \text{ sek.}$$

bu yerda:

Jadvalning 12 ustunida - tarif koef-fitsiyent yig'indisi (9 - jadval ko'rsatkichi bilan 11 - jadval ko'rsatkichlarining ko'paytmasi).

Berilgan jadval ish taqsimotining texnologik sxemasining tashkiliy tadbirlaridagi ishchilarning miqdoriy va malakali tarkibini bildiradi. Jadvalning natijasidan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni (TIK) hisoblashda foydalaniladi. Texnologik sxemasi asosida jihozlarning ma'lumotlar jadvali tuzilib, 12. 1. 1-jadval ko'rinishida beriladi.

Ishning bajarilishi:

11. 1. 2 – jadval

Oqimdagi ishchi kuchi jadvali

Razryad	Ish turi bo'yicha ishchilar soni								Razryadlar yig'indisi	Tarif koef-fitsiyent	Tarif koef-fitsiyent yig'indisi
	Q	M	MM	YaA	D	P	BM	Jami razryadlar bo'yicha			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	2,02	-	-	-	-	-	-	2,02	4,04	1,1	4,44
3	-	22,75	-	-	16,16	-	-	38,91	116,73	1, 2	140,07
4	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1, 33	-
5	-	-	1,97	4,07	-	3,03	0,99	10,06	50,3	1, 46	73,44
Jami mutaqasssaliik bo'yicha	2,02	22,75	1,97	4,07	16,16	3,03	0,99	50,99	171,07	-	217,95
%	3,96	44,62	3,86	7,98	31,69	5,94	1,94	100 %	-	-	-

Nazorat savollar:

1. Ish turi bo'yicha ishchilar soni qanday aniqlanadi?
2. Razryadlar bo'yicha umumiy ko'rsatkich qanday aniqlanadi?
3. Razryadlar yig'indisi qanday aniqlanadi?

XII. OQIMDAGI JIHOZLAR MA'LUMOTI

Mavzu 12.1. OQIMDAGI JIHOZLAR MA'LUMOTI

Ishdan maqsad: Oqimdagi jihozlar ma'lumoti jadvalini tuzish.

Ishni bajarish tartibi:

Oqimdagi jihozlar ma'lumoti.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Ish turi bo'yicha ishchilar soni qanday aniqlanadi?
2. Oqimdagi umumiy jihozlar sonini aniqlang.

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Oqimning texnologik sxemasi, sinxron (moslik) va montaj (biriktirish) grafigi
2. Kalkulyator.
3. Chizg'ich.
4. Format A-4.
5. O'chirg'ich.

Adabiyot: [1,25-26-bb.; 2, 113-114-bb.; 8, 310-311-bb.; 17, 31-32-bb.]

12. 1. 1 - jadval

Oqimdagi jihozlar ma'lumoti

t/r	Jihozlar nomi va markasi	Jihozlar soni, dona			
		Oqimda qo'yilgan		Ehtiyoj	Jami
		Asos.	Rezerv		
1	2	3	4	5	6
1	Universal tikuv mashinasi - DDL-8100e -sinf, Juki	15	2	-	17
2	Universal tikuv mashinasi - DDL-5600 NL-7-sinf, Juki	8	1	-	9

1	2	3	4	5	6
3	Maxsus mashina - DP-2100SZ - sinf, Juki	2	-	-	2
4	Izma yo'rmalaydigan yarim avtomat - LBH-780U -sinf Juki	2	-	-	2
5	Tugma qadaydigan yarim avtomat - MB-1373 -sinf Juki	2	-	-	2
6	Dazmol Cs – 392-sinf, Pannoniya, Vengriya	16	2	-	18
7	Press Cs-394 KE+ 1392-sinf Pannoniya, Vengriya	3	-	-	3
8	Bug' manekeni - MG-321 -sinf	1	-	-	1
	Jami:	49	5	-	54

berilgan jadvalda:

Jadvalning 3 - ustunida – asosiy jihozlar tashkiliy - texnologik sxemadan har bir tip va -sinf bo'yicha tanlab olinadi.

Jadvalning 4 - ustunida – universal va ba'zi maxsus mashinalar uchun hisobga olinadi. (Har mashina turi bo'yicha 10 foizi olinadi).

Jadvalning 5 - ustunida – model yoki assortiment o'zgarganda foydalanadigan ehtiyot qismi.

XIII. TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR (TIK) NI HISOBLASH

Mavzu 13. 1. Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (tik)

Ishdan maqsad: Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

Ishni bajarish tartibi: Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Oqim quvvati qanday hisoblanadi?
2. Oqimning takti qanday hisoblanadi?
3. Oqimdagi ishchilar soni qanday hisoblanadi?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Buyumning texnologik sxemasi (mehnat taqsimosti).
2. Kalkulyator.
3. Chizg'ich.
4. Format A-4.
5. O'chirg'ich.

Adabiyot: [1,28-30-bb.; 2, 162-164-bb.; 8, 313-315-bb.; 17, 31-32-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Texnologik oqimning sifatini baholash texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asosanib bajariladi.

Bu ko'rsatkichlardan korxonaning samarasini hisoblash, mahsulotning tannarxi va rentabelligini aniqlash uchun foydalaniladi. Shu bilan birgalikda boshqa oqimlar natijalarini taqqoslash uchun qo'llaniladi.

Ishning borishi:

Texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar (TIK) quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Mahsulot nomi: _____

1. Oqim quvvati - K_{oq} , dona/smena;
2. Oqimdagi haqiqiy ishchilar soni – N_{haq} , kishi;
3. Mehnat unumdorligi;
4. Buyumni ishlab chiqarish uchun ketadigan vaqt sarfi - VS_{buyum} , soat;
5. O'rtacha tarif razryadi, UTR;
6. O'rtacha tarif koeffitsiyenti, UTK;
7. Buyumning ishlov berish narxi - ρ , so'm;
8. Mexanizatsiyalashtirilgan koeffitsiyenti K_{mex} ;
9. Jihozlardan foydalanish koeffitsiyenti K_{if} ;
10. Bir kvadrat metr maydondan olinadigan mahsulot miqdori – MM , m^2 ;
11. Ixtisoslik darajasi.

Nazorat savollar:

1. Oqimdagi hisobiy ishchilar soni qanday hisoblanadi?
2. Oqimdagi haqiqiy ishchilar qanday aniqlanadi?
3. Mehnat unumdorligi qanday hisoblanadi?
4. Buyumni ishlab chiqarish uchun ketadigan vaqt sarfi qanday aniqlanadi?

Mavzu 13. 2. Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (tik)ni hisobi

Ishdan maqsad: Texnologik oqimning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobi

Ishni bajarish tartibi:

Texnologik oqimning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Ish turi bo'yicha ishchilar soni qanday aniqlanadi?
2. Razryadlar bo'yicha umumiy ko'rsatkich qanday aniqlanadi?
3. Razryadlar yig'indisi qanday aniqlanadi?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Buyumning texnologik sxemasi (mehnat taqsimosti).
2. Kalkulyator.
3. Chizg'ich.
4. Format A-4.
5. O'chirg'ich.

Adabiyot: [1,28-30-bb.; 2, 162-164-bb.; 8, 313-315-bb.; 17, 31-32-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Texnologik oqimda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash: 1. Oqimning quvvati, K_{ok} dona/smena;

$$K_{ok} = \frac{R_{ch}}{\tau};$$

bu yerda:

R_{sm} – smena davomiyligi, $R_{sm} = 28800$ sek;

τ - oqim takti- bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

2. Ishchilar soni, N_{ish} , kishi

$$N(umum) = \frac{BC_{buyum}}{\tau}$$

bu yerda:

BC_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, (buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

τ - oqim takti- bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

3. Ishchining mehnat unumdorligi, MU

$$MY_{uu} = \frac{K_{mk}}{N_{xmk}}; \text{ dona}$$

bu yerda:

K_{mk} - smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulot nomi, dona/smena;

N_{xmk} - haqiqiy ishchilar soni, kishi.

4. Buyumni tikishga sarflangan vaqt, VS_{buyum} :

$$VS_{buyum} = \sum VS_{buyum}$$

Bu yerda:

$\sum VS_{buyum}$ - buyumni tikishga sarflangan umumiy vaqt sarfi, soat.

5. Ishlov berish narxi, ρ , so'm

$$\rho = \frac{DTS * \sum TK}{Koq}, \text{ sum};$$

bu yerda:

R_{sm} - smena davomiyligi, $R_{sm} = 28800$ sek;

$\sum TK$ - tarif koeffitsiyent yig'indisi (oqimdagi ishchi kuchi jadvalining 12 - ustuni umumiy ko'rsatkichi);

Koq - smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulot nomi, dona/smena;

DTS - kunlik tarif stavkasi: (1 - razryad uchun $DTS = 3186,6 * 8 = 25495,6$);

6. O'rtacha tarif razryadi, O'TR

$$Nish = \frac{VS_{buyum}}{\tau}, ishchi;$$

$$O'TR = \frac{\sum TR}{N_{his}};$$

bu yerda:

VS_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;
(Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

$\sum TR$ - razryadlar yig'indisi (oqimdagi ishchi kuchi jadvalining 10 - ustuni umumiy ko'rsatkichi);

N_{his} – hisobiy ishchilar soni, ishchi (texnologik sxemaning 7 - ustunidan olinadi);

τ - oqim takti– bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

7. O'rtacha tarif koeffitsiyenti, O'TK:

$$Nish = \frac{VS_{buyum}}{\tau}, ishchi;$$

$$O'TK = \frac{\sum TK}{N_{his}};$$

bu yerda:

VS_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;
(Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

$\sum TK$ - tarif koeffitsiyent yig'indisi (oqimdagi ishchi kuchi jadvalining 12 - ustuni umumiy ko'rsatkichi);

N_{his} – hisobiy ishchilar soni, ishchi (texnologik sxemaning 7 - ustunidan olinadi);

τ - oqim takti– bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

8. Mexanizatsiyalashtirish koeffitsiyenti, K_{mex} :

$$K_{mex} = \frac{\sum t_m^{b.o} + \sum t_{mn}^{b.o} + \sum t_{pr}^{bo} + \sum t_{yaa}^{b.o}}{VS_{buyum}}$$

bu yerda:

BC_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;
(Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

$\sum t_m^{b.o} + \sum t_{mn}^{b.o} + \sum t_{pr}^{bo} + \sum t_{yaa}^{b.o}$ – mashinada, maxsus mashinada, yarim avtomatda, pressda, bug' manekenida bajarilgan bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi;

$\sum t^{b.o}$ – bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi, sek;

VS_{buyum} – buyumni tikishga sarflangan vaqt, sek.

9. Jihozlarni to'la ishlatish koeffitsiyenti, $K_{j.ish}$:

$$K_{j.ish} = \frac{\sum t_m^{b.o} + \sum t_{mn}^{b.o} + \sum t_{ya/a}^{b.o} + \sum t_{pr}^{b.o} + \sum t_{b/m}^{bo}}{\sum t_m^{t.o} + \sum t_{mn}^{t.o} + \sum t_{va/a}^{t.o} + \sum t_{pr}^{t.o} + \sum t_{b/m}^{t.o}};$$

bu yerda:

$\sum t_m^{b.o} + \sum t_{mn}^{b.o} + \sum t_{ya/a}^{b.o} + \sum t_{pr}^{b.o} + \sum t_{b/m}^{bo}$ – mashinada, maxsus mashinada, yarim avtomatda, pressda, bug' manekenida bajarilgan bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi;

$\sum t_m^{t.o} + \sum t_{mn}^{t.o} + \sum t_{va/a}^{t.o} + \sum t_{pr}^{t.o} + \sum t_{b/m}^{t.o}$ – mashinada, maxsus mashinada, yarim avtomatda, pressda, bug' manekenida bajarilgan texnologik operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi;

$\sum t^{b.o}$ – bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi, sek;

$\sum t^{t.o}$ – tashkiliy operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi, sek.

10. $1m^2$ oqim sahnidan chiqadigan mahsulot miqdori, d/kv.m;

$$MM \text{ m}^2 = \frac{K_{oq} \cdot n_{sm}}{S_{oq}}, \text{ d/kv.m}$$

yoki

$$MM \text{ m}^2 = \frac{K_{oq} \cdot n_{sm}}{N_{ish,o'r} \cdot H_{tip}}; \text{ d/kv.m}$$

bu yerda:

f- bitta ishchi o'rniga qo'shib beriladigan koeffitsiyent
(1,05÷1,15);

N_{ish} - ishchilar soni, kishi;

K_{oq} - smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulot nomi,
dona/smena;

N_{ish} - ishchilar soni, kishi;

n_{sm} - smena soni (1÷3);

S_{oq} - oqimning sahn, m^2 ;

H_{tip} - 1 ta ishchiga to'g'ri keladigan sanitar tipik sahn, m^2
(8 - Ilova).

11. Ixtisoslik darajasi

$$\gamma = \frac{\sum t.o}{\sum b.o}$$

bu yerda:

$\sum t.o$ - tashkiliy operatsiyalarning soni;

$\sum b.o$ - bo'linmas operatsiyalarning soni.

Ishning borishi:

1. Oqimning quvvati, K_{ok} dona/smena;

$$K_{oq} = \frac{R_{sm}}{\tau}$$

bu yerda:

R_{sm} - smena davomiyligi, $R_{sm} = 28800$ sek;

τ - oqim takti- bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

$$K_{oq} = \frac{R_{ym}}{\tau} = \frac{28800}{72} = 400 \text{ dona / sm.}$$

2. Ishchilar soni, N_{ish} . kishi

$$N_{ish} = \frac{VS_{buyum}}{\tau}$$

bu yerda:

VS_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, (buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

τ - oqim takti- bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

$$N_{ish} = \frac{VS_{buyum}}{\tau} = \frac{3666}{72} = 50,99 \text{ kishi}$$

3. Ishchining mehnat unumdorligi, MU

$$MY_{ish} = \frac{K_{oq}}{N_{haq}}; \text{ dona}$$

bu yerda:

K_{oq} – smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulot nomi, dona/smena;

N_{haq} – haqiqiy ishchilar soni, kishi.

$$MU_{ish} = \frac{K_{oq}}{N_{haq}} = \frac{400}{51} = 7,84 \text{ dona.}$$

4. Buyumni tikishga sarflangan vaqt, VS_{buyum} :

$$VS_{buyum} = \sum VS_{buyum}$$

Bu yerda:

$\sum VS_{buyum}$ – buyumni tikishga sarflangan umumiy vaqt sarfi, soat.

$$VS_{\text{buyum}} = \sum VS_{\text{buyum}} = 3666 \text{ sek.} : 3600 = 1,01 \text{ soat}$$

5. Ishlov berish narxi, ρ , so'm

$$\rho = \frac{DTS * \sum TK}{K_{oq}}, \text{sum};$$

bu yerda:

R_{sm} – smena davomiyligi, $R_{sm} = 28800$ sek;

$\sum TK$ - tarif koeffitsiyent yig'indisi (oqimdagi ishchi kuchi jadvalining 12 - ustuni umumiy ko'rsatkichi);

K_{oq} – smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulot nomi, dona/smena;

DTS – kunlik tarif stavkasi: (1 razryad uchun $DTS = 3186,6 * 8 = 25495,6$);

1 - razryad uchun $DTS = 3186,6 * 8 = 25495,6$

2 - razryad uchun $DTS = 3505,65 * 8 = 28045,2$

3 - razryad uchun $DTS = 3824,34 * 8 = 30594,72$

4 - razryad uchun $DTS = 4238,64 * 8 = 33909,2$

5 - razryad uchun $DTS = 4652,95 * 8 = 37223,6$

6 - razryad uchun $DTS = 5099,12 * 8 = 40792,96$

$$\rho = \frac{DTS * \sum TK}{K_{oq}} = \frac{25495,6 * 217,95}{400} = 13.891,91 \text{ so'm};$$

6. O'rtacha tarif razryadi, $O'TR$

$$N_{isn} = \frac{VS_{\text{buyum}}}{\tau}, \text{ishchi};$$

$$O'TR = \frac{\sum TR}{N_{his}};$$

bu yerda: VS_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;
(Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

ΣTR - razryadlar yig'indisi (oqimdagi ishchi kuchi jadvalining 10 - ustuni umumiy ko'rsatkichi);

N_{his} - hisobiy ishchilar soni, ishchi (texnologik sxemaning 7 - ustunidan olinadi);

τ - oqim takti- bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

$$Nish = \frac{VS_{buyum}}{\tau} = \frac{3666}{72} = 50,9ishchi$$

$$O'TR = \frac{\Sigma TR}{N_{his}} = \frac{171,07}{50,9} = 3,36$$

7. O'rtacha tarif koeffitsiyenti, O'TK:

$$Nish = \frac{VS_{buyum}}{\tau}, ishchi;$$

$$O'TK = \frac{\Sigma TK}{N_{his}};$$

bu yerda:

BC_{buyum} - buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;
(Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi);

ΣTK - tarif koeffitsiyent yig'indisi (oqimdagi ishchi kuchi jadvalining 12 - ustuni umumiy ko'rsatkichi);

N_{his} - hisobiy ishchilar soni, ishchi (texnologik sxemaning 7 - ustunidan olinadi);

τ - oqim takti- bitta operatsiyani bajarishga sarflangan o'rtacha vaqt, sek.

$$Nish = \frac{VS_{buyum}}{\tau} = \frac{3666}{72} = 50,9ishchi;$$

$$O^*TK = \frac{\sum TK}{N_{his}} = \frac{217,95}{50,9} = 4,28$$

8. Mexanizatsiyalashtirish koeffitsiyenti, K_{mex} :

$$K_{mex} = \frac{\sum t_m^{bo} + \sum t_{mm}^{bo} + \sum t_{pr}^{bo} + \sum t_{ya,a}^{bo}}{VS_{buyum}}$$

bu yerda:

VS_{buyum} – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;
(Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy vaqt texnologik ketma-ketlik jadvalidan olinadi); $\sum t_m^{bo} - \sum t_{mm}^{bo} - \sum t_{pr}^{bo} - \sum t_{ya,a}^{bo}$ – mashinada, maxsus mashinada, yarim avtomatda, pressda bajarilgan bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi;

$\sum t^{bo}$ – bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi, sek;

VS_{buyum} – buyumni tikishga sarflangan vaqt, sek.

$$K_{mex} = \frac{\sum t_m^{bo} + \sum t_{mm}^{bo} + \sum t_{pr}^{bo} + \sum t_{ya,a}^{bo}}{VS_{buyum}} = \frac{1601 + 142 + 222 + 212 + 72}{3666} = \frac{2249}{3666} = 0,61$$

9. Jihozlarni to'la ishlatish koeffitsiyenti, $K_{j.ish}$;

$$K_{j.ish} = \frac{\sum t_m^{bo} + \sum t_{mm}^{bo} + \sum t_{ya,a}^{bo} + \sum t_{pr}^{bo} + \sum t_{h/m}^{bo}}{\sum t_m^{to} + \sum t_{mm}^{to} + \sum t_{ya,a}^{to} + \sum t_{pr}^{to} + \sum t_{h/m}^{to}};$$

bu yerda:

$\sum t_m^{bo} + \sum t_{mm}^{bo} + \sum t_{ya,a}^{bo} + \sum t_{pr}^{bo} + \sum t_{h/m}^{bo}$ – mashinada, maxsus mashinada, yarim avtomatda, pressda, bug' manekenida bajarilgan bo'linmas operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi;

$\sum t_m^{to} + \sum t_{mm}^{to} + \sum t_{ya,a}^{to} + \sum t_{pr}^{to} + \sum t_{h/m}^{to}$ – mashinada, maxsus mashinada, yarim avtomatda, pressda, bug' manekenida bajarilgan texnologik operatsiyalar vaqtlarining yig'indisi;

$\Sigma t^{b.o}$ – bo‘linmas operatsiyalar vaqtlarining yig‘indisi, sek;
 $\Sigma t^{t.o}$ – tashkiliy operatsiyalar vaqtlarining yig‘indisi, sek.

$$K_{y.ish} = \frac{\Sigma t_m^{b.o} + \Sigma t_{mm}^{b.o} + \Sigma t_{vu.a}^{b.o} + \Sigma n_a^{b.o} + \Sigma t_{h.m}^{b.o}}{\Sigma t_m^{t.o} + \Sigma t_{mm}^{t.o} + \Sigma t_{vu.a}^{t.o} + \Sigma t_{pr}^{t.o} + \Sigma t_{h.m}^{t.o}} = \frac{1601 + 142 + 222 + 212 + 72}{1723 + 142 + 286 + 212 + 72} = \frac{2249}{2435} = 0,92$$

10. 1m² oqim sahnidan chiqadigan mahsulot miqdori,
d/kv.m;

$$MM \text{ m}^2 = \frac{K_{oq} \cdot n_{sm}}{S_{oq}}, \text{ dona/m}^2;$$

yoki

$$MM \text{ m}^2 = \frac{K_{oq} \cdot n_{sm}}{N_{ish.o'r} \cdot H_{tip}}, \text{ dona/m}^2.$$

bu yerda:

f- bitta ishchi o‘rniga qo‘shib beriladigan koeffitsiyent
(1.05÷1.15);

N_{ish} – ishchilar soni, kishi;

K_{oq} – smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulot nomi,
dona/smena;

N_{ish} – ishchilar soni, kishi;

n_{sm} – smena soni (1÷3);

S_{oq} – oqimning sahni, m²;

H_{tip} – bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan sanitar tipik sahn, m² (8
- ilova).

$$N_{ish.o'r} = N_{ish} \cdot f = 51 \cdot 1,15 = 58,65;$$

$$S_{oq} = N_{ish.o'r} \cdot N_{tip} = 58,65 \cdot 6,5 = 381,22 \text{ m}^2;$$

$$MM \text{ m}^2 = \frac{K_{oq} \cdot 2}{S_{oq}} = \frac{400 \cdot 2}{381,22} = 2,09 \text{ dona/m}^2;$$

yoki

$$MM \text{ m}^2 = \frac{K_{oq} \cdot n_{sm}}{N_{ish.o'r} \cdot H_{tip}} = \frac{400 \cdot 2}{58,65 \cdot 6,5} = 2,09 \text{ dona/m}^2.$$

11. Ixtisoslik darajasi

$$\gamma = \frac{\sum t.o}{\sum b.o}$$

bu yerda:

$\sum t.o$ - tashkiliy operatsiyalarning soni;

$\sum b.o$ - bo'linmas operatsiyalarning soni.

$$\gamma = \frac{\sum t.o}{\sum b.o} = \frac{43}{110} = 0,39$$

Nazorat savollar:

1. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar jadvaliga nimalar kiradi?
2. Mexanizatsiyalashtirish koeffitsiyenti qanday hisoblanadi va nimani ko'rsatadi?
3. Jihozlardan foydalanish koeffitsiyenti qaysi formula orqali hisoblanadi va nimani ko'rsatadi?

Mavzu 13.3. Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (TIK) tahlili

Ishdan maqsad:

Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (TIK) tahlili.

Ishni bajarish tartibi:

Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash, mavjud ishlab chiqarish korxonasi bilan taqqoslab, tahlil qilish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?
2. Ixtisoslik darajasi qanday aniqlanadi?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Buyumning texnologik sxemasi (mehnat taqsimosti).

2. Kalkulyator.
3. Chizg'ich.
4. Format A-4.
5. O'chirg'ich.

Adabiyot: [1,28-30-bb.; 2, 162-164-bb.; 8, 313-315-bb.; 17, 31-32-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Oqimdagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni to'la hisoblash va mavjud bo'gan ishlab chiqarish korxonasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslab, tahlil qilish. Absolyut qiymat va nisbiy foizlarni aniqlash va texnik-iqtisodiy jadvalini to'ldirish.

13. 3. 1 – jadval

Oqimning texnik- iqtisodiy ko'rsatkichlari

T/ r	Ko'rsatkichlarning nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar		Yo'nalishlar	
			amalda	loyihada	absolyut	nisbiy
1	2	3	4	5	6	7
1.	Oqim quvvati	dona/s m				
2.	Ishchilar soni	ishchi				
3.	Mehnat unumdorligi	dona				
4.	Vaqt sarfi	soat				
5.	Ishlov berish narxi	so'm				
6.	O'rtacha tarif razryadi					
7.	O'rtacha tarif koeffitsiyenti					
8.	Mexanizatsiyalasht irish koeffitsiyenti					
9.	Jihozlardan					

	foydalanish koeffitsiyenti					
10.	1 m ² maydondan chiqadigan mahsulot soni	dona/m ²				
11.	Ixtisoslik darajasi					

Ish yakuniy TIKdan kelib chiqqan holda, oqimning texnologik sxemasi tahlil qilinadi va quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$K_{absolyut} = K_{loyiha} - K_{fabrika} (+,-)$$

$$K_{nisbiy} = \frac{K_{loyiha}}{K_{fabrika}} \cdot 100 - 100, \%$$

bu yerda:

K_{loyiha} – loyihalananayotgan ko'rsatkichlar;

$K_{fabrika}$ – fabrikaning ko'rsatkichlari.

Ishning bajarilishi:

13. 3. 2 – jadval

Oqimning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichning nomi	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar		Og'ish	
			Kamal	Kloyihada.	Absolyut, ±	Nisbiy, %
1.	Oqim quvvati	dona	392	400	8	2,04
2.	Ishchilar soni	ishchi	51	51	-	-
3.	Mehnat unumdorligi	dona	7,68	7,84	0,16	2,08
4.	Vaqt sarfi	soat	1,04	1,01	-0,03	-2,88
5.	Ishlov berish narxi	so'm	14.384,43	13.891,91	-492,52	-3,42
6.	O'rtacha tarif razryadi		3,01	3,36	0,35	11,63
7.	O'rtacha tarif		3,94	4,28	0,34	8,63

	koeffitsiyenti					
8.	Mexanizatsiyalashtirish koeffitsiyenti		0,53	0,61	0,08	15,09
9.	Jihozlardan foydalanish koeffitsiyenti		0,86	0,92	0,06	6,98
10	1m ² maydondan foydalanish	dona/ m ²	1,89	2,09	0,11	5,56
11.	Ixtisoslik darajasi		0,41	0,39	-0,02	-4,88

Nazorat savollar:

1. Mutaxassislik darajasi deganda nimani tushunasiz?
2. 1m² maydondan mahsulot miqdori qanday hisoblanadi?
3. Absolyut yo'nalish qanday hisoblanadi?
4. Nisbiy yo'nalish qanday hisoblanadi?

XIV. QO'SHIMCHA TEXNOLOGIK OQIMLARNI HISOBLASH

Mavzu 14. 1. Texnologik jarayondagi qo'shimcha oqimlarni hisoblash

Ishning maqsadi:

Loyihalanadigan texnologik oqimdan tashqari qo'shimcha assortiment ishlab chiqariladigan oqimlarni hisoblash.

Ishning mazmuni:

1. Qo'shimcha assortimentga umumiy tushuncha berish
2. Qo'shimcha assortiment ishlab chiqaradigan oqimlarni hisoblash

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Asosiy assortiment deb nimaga aytiladi?
2. Qo'shimcha assortiment deb nimaga aytiladi?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Oqimning texnologik sxemasi.
2. Kalkulyator.
3. Millimetrovka qog'ozi.
4. Chizg'ich.
5. Format A-4.
6. O'chirg'ich


Adabiyot: [1,28-30-bb.; 2, 162-164-bb.; 8, 313-315-bb.; 17, 35-36-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Tikuv sexlarida 2, 3, 4, 5, 6, 8 tagacha texnologik oqimlar bo'lishi mumkin. Bu oqimning quvvatiga, ishlab chiqariladigan assortimentiga va ishchilar soniga bog'liq. Ularning biri asosiy oqim, qolganlari esa *qo'shimcha oqim* hisoblanadi. Ular yanada qo'shimcha assortiment *texnologik oqimlari* deb ataladi. Qo'shimcha texnologik oqim assortimentini tanlash fabrikalarning spetsifikatsiyasiga ko'ra, ishlab chiqarish ratsional hajmiga ko'ra hisoblanadi.

Qo'shimcha oqimning quvvati kattalashtirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra hisoblanadi. Qo'shimcha oqimlarning quvvati, ishchilar soni va buyumni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqti asosiy oqimning 10-15 % tashkil qilishi shart.

Ishning bajarilishi:



14. 1. 1 - rasm. Texnologik jarayonidagi qo'shimcha oqimlar.

Nazorat savollar:

1. Tikuv sexlarida nechta texnologik oqim bo'lishi mumkin?
2. Qo'shimcha oqimlarning yuzasi qanday hisoblanadi?

Mavzu 14. 2. Texnologik jarayonda qo'shimcha oqimlarni loyihalash

Ishning maqsadi:

Loyihalanadigan texnologik oqimdan tashqari qo'shimcha assortiment ishlab chiqariladigan oqimlarni loyihalash

Ishning mazmuni:

1. Qo'shimcha assortiment ishlab chiqaradigan oqimlarni loyihalash

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Qo'shimcha assortiment ishlab chiqaradigan oqimlarni qanday hisoblash kerak?
2. Qo'shimcha assortiment ishlab chiqaradigan oqimlarni tikuv sexida qanday joylashtirish kerak?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Oqimning texnologik sxemasi.
2. Kalkulyator.
3. Millimetrovka qog'ozi.
4. Chizg'ich.
5. Format A-4.
6. O'chirg'ich.

Adabiyot: [1,28-30-bb.; 2, 162-164-bb.; 8, 313-315-bb.; 17, 35-36-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Qo'shimcha texnologik oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{q.oq} = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}}$$

bu yerda:

$K_{oq} 2$ – ikkinchi oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni;

$K_{oq} 3$ – uchinchi oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni;

$K_{oq} 4$ – to'rtinchi oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni;

N_{ish} – oqimdagi ishchilar soni;

R_{sm} – smena davomiyligi, $R_{sm} = 288000$ sek;

VS_{buyum} – bir buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek.

$$K_{q.oq} 2 = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}}$$

$$K_{q.oq} 3 = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}}$$

$$K_{q.oq} 4 = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}}$$

14.2. 1 - jadval

Qo'shimcha oqimlarning hisobi

t/r	Mahsulotning nomlanishi	Oqim turi	Smena davom	Ishchilar soni	Sarflangan vaqt, soat	Oqimning quvvati
1	2	3	4	5	6	7
1						
2						
3						
	Jami:					

Ishning bajarilishi:

Qo'shimcha texnologik oqimlar quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{q.oq} = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}}$$

bu yerda:

$K_{oq\ 2}$ – ikkinchi oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni;

$K_{oq\ 3}$ – uchinchi oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni;

$K_{oq\ 4}$ – to'rtinchi oqimning smena davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni;

N_{ish} – oqimdagi ishchilar soni;


R_{sm} – smena davomiyligi, $R_{sm} = 28800$ sek;

BC_{buyum} – bir buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek.

$$K_{q.oq\ 2} = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}} = \frac{50 \cdot 28800}{3600} = 400dona / sm$$

$$K_{q.oq\ 3} = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}} = \frac{51 \cdot 28800}{3680} = 399dona / sm$$

$$K_{q.oq\ 4} = \frac{Nish \cdot R_{sm}}{VS_{buyum}} = \frac{52 \cdot 28800}{3888} = 385dona / sm$$



14. 1. 1 – rasm. Texnologik jarayonida qo'shimcha oqimlarni loyihalash.

14.2. 2 - jadval

Qo'shimcha oqimlarning hisobi

t/r	Mahsulotning nomlanishi	Oqim turi	Smena davomiyligi	Ishchilar soni	Sarflangan vaqt, soat	Oqimning quvvati, dona/sm
1	Oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi (yubka va pidjak)	Agregat-guruhli	28800	50	3600	400
2	Oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi (yubka va pidjak)	Agregat-guruhli	28800	51	3680	399
3	Oliy o'quv yurti talaba qizlari formasi (yubka va pidjak)	Agregat-guruhli	28800	52	3888	385

Nazorat savollar:

1. Qo'shimcha texnologik oqimlar qanday hisoblanadi?
2. Qo'shimcha texnologik oqimlar quvvati qanday hisoblanadi?

XV. OQIMDAGI ISH O'RINLARINI JOYLASHTIRISH

Mavzu 15. 1. Oqimdagi ish o'rinlarini tikuv sexida joylashtirish

Ishdan maqsad:

Oqimdagi ish o'rinlarini tashkiliy operatsiyalarga mos tartibda (ketma-ketlikda) tikuv sexida joylashtirilish.

Ishni bajarish tartibi:

Dastlabki hisobda aniqlangan sex maydonini millimetrovka qog'ozga belgilab, kolonnalar to'rini chizish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Sex maydoni qanday aniqlanadi?
2. Oqim maydoni qanday aniqlanadi?
3. Oqim uzunligi qanday aniqlanadi?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Oqimning texnologik sxemasi.
2. Kalkulyator.
3. Millimetrovka qog'ozi.
4. Chizg'ich.
5. Format A-4.
6. O'chirg'ich.
7. Millimetrovka qog'ozi.

Adabiyot: [1,30-32-bb.; 2, 156-174-bb.; 8, 220-234-bb.; 17, 35-36-bb.]


Uslubiy qo'llanma

Oqimdagi ish o'rinlari texnologik sxema tashkiliy operatsiyalariga mos tartibda (ketma-ketlikda) joylashtirilishi kerak. Ish o'rnining qadami har qaysi operatsiyaning turiga moslab stollarning, press va boshqa mexanizmlarning enini


shuningdek, stollar oralig'idagi masofani nazarda tutib belgilanadi.

Ish o'rinlari ularning ustiga uskunalarni, asboblarni, moslama va tikiladigan buyumlarni joylashtirish qulay bo'ladigan qilib shuningdek ishchilar eng qisqa va eng oddiy harakatlar ishlariga mos tarzda joylashtirish kerak.

Tikilayotgan buyum oqimdagi bir ish o'rnidan ikkinchisiga uzluksiz (seksion oqimlar bundan istisno bo'lib ularda seksiyalar orasidagi zahira hosil qilinadi) o'tib boradigan bo'lishi kerak. Oqimdagi ish o'rinlarini (15. 1. 2 - rasm) odatda, ko'ndalangiga ya'ni ish stolini transportyor tasmasiga yoki yarimfabrikat o'tib boradigan stolga perpendikulyar (15. 1. 1 - rasm, a) joylashtirsa ham, uzunasiga ya'ni ish stolini transportyor yoki yarimfabrikat o'tib boradigan stolga parallel (15. 1. 2 - rasm, b) joylashtirsa ham, oqimning o'q chizigiga nisbatan bir oz burchak hosil qilib, ya'ni diagonal bo'ylab (15. 1. 2 - rasm) joylashtirsa ham bo'ladi.



15. 1. 1 - rasm. Ish o'rinlarini joylashtirish.




15. 1. 2 - rasm. Agregatlarda ish o'rinlarini joylashtirish

Ko'ndalang joylashtirish bulardan eng ratsionalli bo'lib hisoblanadi. Bunda ish o'rnidagi ishchi transportyor tasmasidan buyumlarni chap qo'li bilan oladigan bo'lishi kerak, chunki shunda tasma bilan mashina tepkisi oralig'ilagi masofa eng qisqa bo'ladi. Bundan tashqari transportyor tasmasi harakatining ishchiga nisbatan yo'nalishi hisobga olinadi.

Transportyor tasmasining ishchi qarab o'tirgan tomondan o'ng tomonga harakatlanishi qulay hisoblanadi.

Universal mashinalarga, maxsus mashinalarga, qo'lda bajariladigan va dazmollash operatsiyalariga mo'ljallangan ish stollarining o'lchamlari, shuningdek press va boshqa uskunalarning o'lchamlari jadvalda keltirilgan.



15. 1. 3 - rasm. Ish o'rinlarini joylashtirish variantlari.

Qo'shni ish o'rinlari (uskunalar)ning oralig'i quyidagicha bo'lishi tavsiya etiladi:

-buyumni tizzaga olib o'tirib bajariladigan operatsiyalarda 0.75 m;

-buyumni stolga qo'yib o'tirib bajariladigan operatsiyalarda 0.55 m;

-tik turib bajariladigan dazmollash va qo'l ish o'rinlarida 0.5 m;

-qator turgan ikkita press oralig'i 0.4 - 0.5 m,

-press bilan boshqa tipdagi ish o'rni oralig'i esa 0.8 - 1.2 m;

-press bilan transportyor oralig'i 0.2 - 0.3 m.

Presslar oralig'i va presslar bilan boshqa uskunalar oralig'i shuningdek, press bilan transportyor oralig'i har xil bo'lgani uchun ayrim hollarda ish o'rnining qadami oqimdagi ko'pchilik ish o'rinlari qadamidan kattaroq yoki kichikroq bo'lishi mumkin. Oqim boshlanadigan joyda bichiqnlarni oqimga uzatish joyiga mumkin qadar yaqin qo'yilib, ayni vaqtda, konveyerning harakatlantiruvchi stansiyasiga qopqoq vazifasini o'taydigan stol oqimga bichiqqlar tushiruvchining ish o'rnini bo'ladi. Oqimdan tayyor kiyim chiqadigan joy esa, tayyor kiyimni omborga topshiriladigan joyga mumkin qadar yaqin bo'lishi kerak.


Konveyerli oqimlarda ish o'rinlari faqat ko'ndalang joylashtiriladi.

Kam seriyali oqimlarda ham ish o'rinlari ko'ndalang joylashtiriladigan, faqat oqimga buyum tushiruvchi ishchining o'rnini agregatning boshida quti yarimr haddan tashqari ko'p qaytib kelmaydigan joyda bo'lishi kerak (15. 1. 2 - rasm,g).

Guruhli - agregat oqimlarda ish o'rinlarini joylashtirishning hamma variantlaridan (ko'ndalang, uzunasiga va diagonal bo'ylab joylashtirishdan) foydalanish mumkin (15. 1. 2 -rasm). Ish o'rinlarini bunday joylashtirish sexning ishlab chiqarish sahnidan tejab foydalanish imkonini beradi. Ish o'rinlari bir-biriga bevosita yaqin joyda ma'lum tugunlarni tikadigan alohida-alohida guruh qilib birlashtiriladi. Bu tikilayotgan detallarni bir ish o'rnidan ikkinchisiga o'tkazishni yengillashtiradi. Ish o'rinlari ortida yoki chap yonida harakatlanmaydigan uzatish vositalari bo'lib, ular yarimfabrikatlar uzatishni qulaylashtiradi. Bir-biriga nisbatan ish o'rinlari yarimfabrikat uzatishga ham uni olishda, ham qo'l yetadigan joyda bo'lishi lozim. Har qaysi seksiyada ish o'rnini to'g'ri joylashgan bo'lishi kerak. Bu talablarga javob beradigan bo'lishi uchun guruhli - agregat oqimlardagi ish o'rnilarini seksiyalarga birlashtirib (guruh qilib) joylashtirish variantlari juda xilma-xilligidan foydalanish mumkin.

15. 1. 3 - rasmdagi variantlarning dastlabki to'rttasiga yarimfabrikatlarni bitta ish joyidan bittalik ish o'rinlariga, bitta ish joyidan ikkitalik ish o'rinlariga , bitta ish joyidan uchtalik ish

o'rinlariga va ikkitalik ish joyidan bittalik ish o'rinlariga, ikkitalik ish joyidan ikkitalik ish o'rinlariga, ikkitalik ish joyidan uchtalik ish o'rinlariga joylashtirilishi tasvirlangan.



15. 1. 3 – rasm. Yarimfabrikatlarning ish o'rinlarida joylashtirilishi

bu yerda:

				
Ish o'ni	Stol oralig'i	Detal siljiydigan stol	Stellej, aravacha	Javonlar

1 → 1 – detallarni bir ish o'rnidan bittalik ish o'rniga uzatish

1 → 2 – detallarni birish o'rnidan ikkitalik ish o'rniga uzatish

1 → 3 – detallarni birish o'rnidan uchtalik ish o'rniga uzatish

2 → 1 – detallarni ikki ish o'rnidan bittalik ish o'rniga uzatish

2 → 2 – detallarni ikki ish o'rnidan ikkitalik ish o'rniga uzatish

2 → 3 – detallarni ikki ish o'rnidan uchtalik ish o'rniga uzatish

Nazorat savollar:

1. Qo'shni ish o'rinlarining oralig'i qancha bo'ladi?

2. Oqimda ish o'rinlari qanday joylashtiriladi?

Mavzu 15. 2. Ish o'rnini qadami har qaysi operatsiyaning turiga moslab stollarni tikuv sexida joylashtirilish

Ishdan maqsad:

Texnologik operatsiyaning turiga moslab stollarni tikuv sexida joylashtirilish

Ishni bajarish tartibi:

Millimetrovka qog'ozida 1:100 masshtabda tikuv sexi rejaini chizish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Oqimning maydoni qanday aniqlanadi?
2. Oqimning uzunligu qanday aniqlanadi?

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Oqimning texnologik sxemasi.
2. Kalkulyator.
3. Millimetrovka qog'ozi.
4. Chizg'ich.
5. Format A-4.
6. O'chirg'ich.
7. Millimetrovka qog'ozi.


Adabiyot: [1,30-32-bb.; 2, 156-174-bb.; 8, 220-234-bb.; 17, 35-36-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Barcha turdagi oqimda ish o'rinlarini joylashtirishda oqimdagi hamma ish o'rinlarini $5 \div 10$ foizi miqdorida zahira ish o'rinlari bo'lishini nazarda tutiladi (guruhli-agregat oqimlarda ish o'rinlarini joylashtirishning umumiy ko'rinishi rasmlarda berilgan). Zahira ish o'rinlari ish hajmiga nisbatan ko'proq bo'limlarga yoki murakkabroq operatsiyalar bajariladigan joylarga, shuningdek, bir nechtdan maxsus mashina, apparat

universal mashina o'rnatilgan joylarga qo'yiladi (faqat guruhli-agregat oqimlarda zahira ish o'rinlaridan tashqari etakchi ishchilar uchun yana 2-3 ta ish o'rni bo'ladi; ulardagi ishchilar yuqori malakali bo'lib ayrim operatsiyalardagi ulgurilmay qolgan ishlarni tez bajarib beradilar va mahsulot sifatini kuzatib, nazorat qilib boradilar).

Ishning borishi:



15. 2. 1 – rasm. Tikuv sexida asosiy va qo'shimcha oqimlarni joylashtirish.

Nazorat savollar:

1. Konveyer oqimlarni joylashtirganda nimaga rioya qilish lozim?
2. Guruhli-agregat oqimlarda ish o'rinlari qanday joylashtiriladi?
3. Texnologik oqimni sexda joylashtirganda qanday o'lchamlarga e'tibor berish kerak?
4. Konveyerli oqimlarda qaysi transport vositalari ishlatiladi?

XII. TRANSPORT VOSITALARINI TANLASH

Mavzu 16. 1. Texnologik oqimda jihozlarni joylashtirish

Ishdan maqsad:

Texnologik oqimda zamonaviy jihozlarni va transport vositalarining qo'llanilishini o'rganish.

Ishni bajarish tartibi:

Mehnat taqsimoti tahlil qilingandan keyin transport vositalarini tanlab tikuv sexi rejasi bo'yicha jihozlarni joylashtirish.

Ishga tayyorlanish uchun topshiriq:

1. Universal tikuv mashinalarning standart o'lchamlari.
2. Maxsus tikuv mashinalarning standart o'lchamlari.

Kerakli asbob-uskunalar:

1. Oqimning texnologik sxemasi.
2. Kalkulyator.
3. Millimetrovka qog'ozi.
4. Chizg'ich.
5. Format A-4.
6. O'chirg'ich.
7. Millimetrovka qog'ozi.

Adabiyot: [1,30-32-bb.; 2, 156-174-bb.; 8, 220-234-bb.; 17, 36-38-bb.]

Uslubiy qo'llanma

Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarish shunday tashkil qilinadiki, ishlab chiqarish protsessor yordamida materiallar, tayyor buyumlar, tayyor mahsulotlar, chala tayyor buyumlar beto'xtov harakatda bo'ladi.

Bu operatsiyalarni bajarish uchun turli xil transport vositalari qo'llaniladi. Shu sababli, korxonalarda transport xo'jaligi tashkil qilinadi. Transport xizmat qilish zonasiga ko'ra tashqi va ichki transportga bo'linadi.

Tikuv sexlarida, asosan, ichki transport vositalari qo'llaniladi. Sex ichidagi transport tikilayotgan buyum detallarini yoki buyumlarni texnologik jarayonining borishiga qarab bir ish o'rnidan, ikkinchi olib borish uchun xizmat qiladi.

Tikuv sexlarida mehnat predmetlarini uzatish usuliga qarab, har xil transport vositalari qo'llaniladi: har xil tipdagi transportyorlar (lentali, lyulkali, KZ va MK konveyerli, osma stol, uchburchak shakldagi oraliq stol, javon, nov, modul jihozlar) va mexanik bo'lmagan transport vositalari (konteyner-aravacha, stellaj-aravacha, kronshteyn-aravacha, platforma-aravacha va boshqalar).

				
Ish o'rni	Stol oralig'i	Detal siljiydigan stol	Stellej, aravacha	Javonlar

Tikuvchilikda oqimlarning konveyerli yoki konveyersiz turidan tashqari, guruhli - agregat oqimlar va kam seriyali oqimlar ham bo'ladi.

Konveyerli oqimlarda tikilayotgan buyum bir ish o'rnidan ikkinchisiga mexanik transportyorlar yordamida texnologik jarayonning muayyan, ya'ni qat'iy taktiga (ishlash me'yoriga) moslab o'tkazib turiladi. Konveyerli oqimlar ishini ta'minlab turadigan transportyor qurilmalarini majoziy ma'noda *konveyerlar* deb yuritish odat bo'lgan.

Konveyersiz va guruhli - agregat oqimlarda detallarni bir ish qat'iy bo'lmagan ritmda ishlaydigan mexanik transportyorlar

yordamida yoki qo'lda uzatib turiladi. Konveyerlar (transportyor qurilmalari) tasmali, zanjirli, osma va adresli bo'ladi.

Transportyorlarning harakatlanish xususiyatiga ko'ra konveyerlar uzluksiz va vaqt-vaqti bilan ishlaydigan bo'ladi. Uzluksiz ishlaydigan konveyerlarda transportyor to'xtovsiz harakatlanib turadi. Vaqt-vaqti bilan ishlaydigan konveyerlarda esa transportyor to'xtab-to'xtab harakatlanadi.

Transportyorlar vertikal-berk va gorizontal-berk bo'ladi.

Harakatlantiruvchi barabanlar o'qining qanday turishiga qarab konveyerlar vertikal-berk konveyerlarning bir qismi salt harakatlanib turadi. Gorizontal-berk konveyerlarning esa salt yuradigan qismi bo'lmaydi.


Vertikal-berk konveyerlarning quyidagi turlari bor:

- *Bir chiziq bir qatorli konveyer.* Bu bir chiziq bo'ylab joylashgan transportyor bo'lib, uning bir yonida ish o'rinlari qatori bo'ladi.

- *Bir chiziq ikki qatorli konveyerlar.* Bu bir chiziq bo'ylab joylashgan transportyorning ikki yonida ish o'rinlari qatori bo'ladi.

- *Ikki chiziq ikki qatorli konveyerlar.* Bunda transportyorlar ikkita chiziq bo'ylab bir-biriga parallel o'rnatilgan bo'lib, ularning orasi zich yoki 0.6m ochiq bo'lishi mumkin. Har qaysi transportyorning faqat bir yonida ish o'rinlari qatori bo'ladi.


Bu transportyorlarning harakat yo'nalishi va tezligi har xil bo'lishi mumkin. Har qanday konveyer qurilma harakatlantiruvchi stansiyadan, karkasdan, taranglovchi stansiyadan va tashish qurilmasidan iborat. Tashish qurilmasi konveyerning yuk ko'taradigan va yuk tortadigan qismidir. Tashish qurilmasi sifatida rezinkalangan, ip tolali yoki brezent tasmali ishlatiladi. Ularning eni 400-700 mm gacha bo'lib, ikkita barabanga tortib qo'yiladi. Barabanlardan biri tasmani harakatga keltiradi, ikkinchisi esa uni taranglab turadi. Tortuvchi element sifatida tasmadan tashqari, kajavalar o'rnatilgan, vtulka rolikli zanjir ham ishlatiladi.




a)



b)



b)




g)

16. 1. 1 – rasm. Ish o‘rinlarida chalafabrikatlarning harakati:



- a) perpendikulyar joylashgan to‘g‘ri chiziqli ish o‘rni;
- b) parallel joylashgan to‘g‘ri chiziqli ish o‘rni;
- v) burchak ostida joylashgan to‘g‘ri chiziqli ish o‘rni;
- g) guruhli joylashgan to‘g‘ri chiziqli ish o‘rni.

16.1.1 - jadval

Tehnologik oqimdagi buyum detallarini harakatlantiruvchi transport vositalari





Transport vositalarining rusumi va i'ch davlat	Agregatning uzunligi, Luz, m.	Tezligi, V, m/min.	Hajmi, (uzunligi, kengligi, balandligi)	Ish o'rni qadami, Lish.o'r., m.	Tashqi ko'rinishi	Ish o'rni joylashuvining sxematik ko'rinishi
KTDD-1 (Rossiya)	14,25 dan 38,25 gacha	0,4-3,0	0,6 (35,00x1,10x0,80)	1,1-1,6		
KZ (Rossiya)	35 gacha	0,122	0,228; 0,304 (35,00x0,40x0,86)	1,1-1,6		
KM (Rossiya)	35 gacha	0,123	0,152; 0,228; 0,304 (35,00x0,12x0,76)	1,1-1,6		

16. 1. 1 - jadvalning davomi

SPK (Rossiya)	Cheklanmagan	6,0	0,40-0,60	1,1-1,6		
GM-200-D-50 (Rossiya)	Cheklanmagan	7,4	0,8	1,1-1,6		
TSM-2 (Rossiya)	35 gacha	6,0-8,0	35,00 gacha x 0,74 x 0,80	1,1-1,6		
Datatron, Durkopp, Germaniya	Cheklanmagan	5,0-10,0		1,1-1,6		
ETTON-2001 ETTON-2002 (SHvetsiya)	Cheklanmagan	5,0-10,0		1,1-1,6		

228

16. 1. 1 - jadvalning davomi

Gerbermover GM-100, firma GGT, SSHA	Cheklanmagan	0,95		1,1-1,6		
Manipulyar aravacha, Teraspol	Cheklanmagan	16,2		1,1-1,6		
Osma transportyor (OAO SNIISHP)	Cheklanmagan			1,1-1,6		
Oraliq stol	Cheklanmagan	(1,1-1,2) x (0,5-0,6)		1,1-1,6		
Aravacha – javon SP-6-34	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	0,62 x 0,46 x 0,80	1,1-1,6		
Aravacha – javon T-499-01-05	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	0,66 x 0,40 x 0,73	1,1-1,6		

229

16. 1. 1 - jadvalning davomi

Aravacha – javon TR-2S 788 00.000	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	0,88 x 0,55 x 0,90	1,1-1,6		
Aravacha – javon T-499-01-13	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	0,66 x 0,40 x 0,85	1,1-1,6		
Aravacha – javon TR-2S 753.000	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	1,18 x 0,50 x 0,90	1,1-1,6		
Aravacha – konteyner	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	1,18 x 0,50 x 1,68	1,1-1,6		
Aravacha – qisqich	Cheklanmagan	30,0 x 48,0	0,50 x 0,34 x 0,73	1,1-1,6		



16. 1. 2 - jadval

**Agregat- guruhli oqimda ish o'rinlarini joylashtirish
klassifikator-sxemas**


16. 1. 2 – jadvalning davomi

16. 1. 2 – jadvalning davomi


16. 1. 2 – jadvalning davomi



16.1.2 - rasm. Oqimda ish o'rinlarini joylashtirish namunalari



16.1.3 - rasm. Kajavali transportyor



16. 1. 4 - rasm. Tasmali transportyor

Hozirgi vaqtda aralash tashuv qurilmalari ko'proq ishlatiladigan bo'lib, ular ham zanjir, ham tasmadan iboratdir. Bunday qurilmalardagi zanjir tasmaning uzunasi bo'ylab uning o'rtasiga biriktirilgan bo'ladi. Zanjir yulduzsimon tishlarga kiydirilgan bo'lib, uning ikki yonidagi erkin aylanib turadigan ikkita baraban tasmani tutib turadi. Tasma taxta to'siqlar bilan bo'limlarga (ish zonalariga) bo'lingan bo'ladi.

Bir zanjirli vertikal-berk tipdagi KM konveyeri oqimdagi biriktirish bo'limlariga mo'ljallangan. Bu konveyerda yarim – fabrikatlar karetkalarga osilgan holda tashiladi. Konveyer ish zonasining qadami buyum tikilayotganiga qarab 0,14-0,30 m bo'ladi. Transportyorning o'rtacha tezligi 0,12 m/min , kengligi 0,12 m, balandligi 0,75 m.


KZ va KM konveyerlarida buyumlar ratsional tezlikda uzatib turiladi, tikuvchilar ish bilan bir tekis ta'minlanib turiladi. Bu esa ish unumini oshirishga tikish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Osma konveyerlar (16. 1. 5 -rasm) ayollar jun kuylagini pardozlash seksiyalariga mo'ljallangan. Bu konveyerlarda zanjir yuk ko'taradigan va yuk tortadigan qism vazifasini bajaradi. Uning uzunasi bo'ylab bir xil oraliqda ilgaklari bo'lib, ularga tikiladigan buyumlar osiladi.

Ilgaklarning shakli buyum turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ular orasidagi masofa esa tasmali transportyordagi ish

zonalari qadamiga teng bo'lad. Bu konveyer 6 m/min o'zgarmas tezlik bilan harakatlantiriladi.


Osma konveyerlardan yana biri - *ikki chiziqli burama konveyer* bo'lib, u pardozlash seksiyalarida ishlatiladi (16. 1. 6 - rasm). Bunday konveyerlarda yarimfabrikatlar odatdagi kiyim ilgichlarda tashiladi. Uning burama valiklari diametri 30 mm po'lat trubalardan yasaladi. Trubalarning tashqi tomoniga diametri 5 mm sim o'raladi.



16. 1. 5 - rasm. Osma konveyer

O'ralish qadami 26 mm. Ikki chiziqli burama konveyerda harakatlantiruvchi stansiya valiklari ularni bir-biriga ulaydigan zanjir yordamida aylantirib turiladi.

Vahti-vaqti bilan ishlaydigan konveyerda transportyor tasmasi vaqti- vaqti bilan harakatga kelib, ish zonasi qadamiga teng masofaga suriladi va belgilangan harakat tezligiga mos vaqt ichida to'xtab turadi. Bunday konveyerning takti quyidagi qiymatga teng: $t = t_x + t_{to'xtam}$



16. 1. 6 - rasm. Osmo konveyerning bir turi – ikki chiziqli burama konveyer.

Vaqtı-vaqtı bilan ishlaydigan konveyerlarda transportyor tasmasining harakat tezligi rostlagichi tuzilish jihatidan har xil bo'ladi.




To'ntarilmaydigan kajavalari bor kichik konveyerlar eni tor binolarda ishlatiladi. Bunday konveyer jarayondagi ish o'rinlari ikkita qatoriga xizmat ko'rsatadi. 1 - qatordagi ishchilar ustki shaxobchadan, 2 - qatordagilari esa ostki shaxobchadan foydalanadilar. Bu konveyerning kengligi tikiladigan buyum turiga qarab 0,4-0,6 m bo'ladi. Qo'shqavat konveyer sex enidan kam joy oladi.

Kam seriyali transportyorlar - TMS-1 va TMS-2 kam seriyali buyumlar tikiladigan oqimlardagina mo'ljallangan.

TMS-1 o'rnatilgan oqimlarda 18 - 30 ta ish o'rni bo'ladi. Bu qurilmaning uzunligi ish o'rinlari nechtaligiga bog'liq. Kengligi esa 1,32 m, tasmasining harakat tezligi 6 - 8 m/min. Transportyorning tasmasi 2 ta bo'lib, ularning ostki shaxobchasi salt yuradi.

16. 1. 3 - jadval

Transportyorlarning turlari

Transportyorlar	Transportyorlarning nomlanishi
	Ikkita paralell joylashgan yulduzchali zanjirga biriktirilgan tasmali transportyor
	Ikki qavatli transportyor
	Yog'och plastinali transportyor
	Kajavali transportyor
	Barabanli transportyor
	Tasmali transportyor

Kiyim bichig'i (yarimfabrikat) oqimga tushirish joyida quti yarimiga joylanib, transportyor tasmasiga qo'yiladi. Bu quti yarim transportyor tasmasining oxiriga yotganda burish diski ularni qarama-qarshi tomonga harakatlanayotgan 2 - tasmaga o'tkazib qo'yadi. 2 - tasmaning oxirida ham burish diski bo'lib, u quti yarimni 2 -tasmadan birinchi tasmaga o'tkazib qo'yadi. Oqimga tushiruvchi ishchi tashkiliy operatsiyalarning ish taqsimoti sxemasida mo'ljallangan texnologik tartibga asosan tashkiliy operatsiyalarning raqami yozilgan kartochkalarni tanlab, ularni quti yarmidagi maxsus cho'ntakka solib qo'yadi. Quticha shu raqamdagi operatsiyani bajaradigan ishchi ro'parasiga borganda, ishchi o'z raqamini ko'rib, qutichadagi ishni olib, tikishni boshlaydi.





TMS - 2 transportyorining TMS - 1 transportyoridan farqi shundaki, unda faqat bitta vertikal - berk tasma bo'lib, uning ikkala shaxobchasi ham salt yurmaydi. TMS - 2 o'rnatilgan oqimlarda 20 - 40 ta ishchi o'rni bo'ladi. Bu qurilmaning uzunligi ham ish o'rnining soniga bog'liq. Kengligi esa 0,74 m, tasmasining harakat tezligi 6 - 8 m/min. Quti yarim tasmaning ustki shaxobchasidan pastki shaxobchasiga va pastki shaxobchadan tushiruvchining stoliga avtomatik ravishda o'taveradi. Yuqorida tasvirlangan transportyorlar yarimfabrikat solingan quti yarimni ish o'rinlariga avtomatik etkazib bermaydi. Ya'ni ular avtomatik adresli emas.

Endilikda avtomatik adresli transportyorlar TKT-1 ishlatilmoqda. Tasmali konveyer TKT - 1 ning shartli belgilari quyidagicha: 1 - yurituvchi stansiya, 2 - ish o'rni, 3- quti yarimni qabul qilish joyi (ustki kavat), 4 - quti yarimni qaytarib yuborish joyi (ostki qavat), 5- transportyor tasmasi, 6- tortuvchi qurilma, 7- dispatcherlik pulti, 8- tokchali javon (quti yarimni va bichiq detallarini saqlaydigan joy), 9-rolikli konveyer, 10-yordamchi konveyer B - konveyerning kengligi, B - ish o'rni bilan birgalikdagi oqim kengligi, L - konveyerning uzunligi (5,5 dan 49 m gacha), L - javon va yordamchi konveyer bilan birga konveyerning uzunligi (14,9 dan 52,4gacha) L - ish joyining minimal uzunligi (16,5 m dan 54 m gacha) t - ish o'rnining oralig'i (1,25 m). Oqimda ishlaydigan ishchilar o'rni 13 dan 73 tagacha bo'ladi. Bunday transportyorlarda maxsus quti yarim ishlatiladi.

Guruhli-agregat oqimlarda yarimfabrikatlarni bir operatsiyadan keyingi operatsiyaga o'tkazish uchun harakatlanmaydigan uzatish vositalari ham ishlatilishi mumkin.


16. 1. 4 - jadval

Vertikal-berk konveyerlarning turlari

Konveyerlar	Nomlanishi
	Bir chiziq bir qatorli konveyer
	Ikki chiziqli, ikki qatorli konveyer
	Qaytma harakatlanadigan, ikki qatorli konveyer
	Uch qatorli konveyer
	Bir va ikki qatorli konveyer
	Bir va ikki qatorli konveyer
	Kombinatsiyalashgan konveyerlar

Agregatlarni joylashtirishda sexning eni va uzunasi bo'ylab o'tish yo'llari quyidagicha qoldiriladi; asosiy o'tish yo'llari 3,0 – 3,5 m; sexning yon tomon devorlaridan agregat boshlanadigan

joygacha (ishga tushirish joyi) va bitkazib chiqarish (tayyor mahsulot olish) joyi bor tomonda 3 - 4 m oqimga tushirish yoki bitkazib chiqarish joyi yo'q tomonda 2 - 2,5 m agregatning yon tomonidan devorgacha 1,1 - 1,2 m. Agregatlar orasidagi yo'l (asosiy yo'ldan boshqasi) sexning eni bo'ylab ikkita yoki uchta agregat joylashtirilgan bo'lsa 2,0-2,5 m to'rtta, agregat joylashtirilgan bo'lsa 1,5-2,0 metr masofa qoldiriladi.



16. 1. 7 - rasm Harakatlanmaydigan transport vositalari.

a - nishab stoli; b - uchburchak shaklidagi oraliq stol;

v - to'rtburchak shaklidagi oraliq stol; d - nova.

Agregatlarni joylashtirganda tirgak kolonnalar ko'ndalang o'tish yo'llariga to'g'ri kelib qolmasligi kerak. Agregatdagi ish o'rinlari bilan kolonnalar oralig'i kamida 0,4 m bo'lishi shart.

Nazorat savollar:

1. Texnologik oqimni sexda joylashtirganda qanday o'lchamlarga e'tibor berish kerak?

2. Konveyerli oqimlarda qaysi transport vositalari ishlatiladi?

Mavzu 16. 2. Texnologik oqimda ish o'rinlarini tashkil qilish

Ishdan maqsad:

